

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo`l yozma huquqida

UDK 809.437.5

**AZIZOVA NAFOSAT ABDULLAYEVNA
TALABALAR NUTQINING LINGVOMADANIY VA
SOTSIOPRAGMATIK XUSUSIYATI
5A 111201 – O`ZBEK TILI VA ADABIYOTI
MAGISTR**

Akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

Filol. Fan. nomzodi, professor B.Mengliyev

Qarshi 2013

MUNDARIJA

Kirish.	3
I Bob. Nutqning ijtimoiy xoslanishi haqida.....	13
1.Nutqning yoshga ko`ra xoslanganligi.....	13
2.Nutqning jinsga ko`ra xoslanganligi.....	24
I bob bo`yicha xulosa.....	35
II Bob. Talabalar nutqining qurilish strukturasi haqida.....	37
1. Talabalar nutqining leksik strukturasi	37
2. Talabalar nutqining morfologik strukturasi.....	48
3. Talabalar nutqining sintaktik strukturasi	58
II bob bo`yicha xulosa.....	68
III Bob. Talabalar nutqida noadabiy qatlam va unsurlar	70
1. Talabalar nutqida jargon	70
2. Talabalar nutqida argo	82
III bob bo`yicha xulosa	90
Xulosa.....	92
Ilova	95
Adabiyotlar ro`yxati.....	96

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Fakul`tet_____

Magistratura talabasi_____

Kafedra_____

Ilmiy rahbar_____

O`quv yili_____

Mutaxassisligi_____

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

- **Mavzuning dolzarbligi;** Tilshunosligimizning shakllanajak lingvokul`turalogiya yo`nalishi asosiy diqqatini til madaniyatini o`z birliklariga qanday singdirish va ifodalashi saqlashi va namoyon qilishi muammolari aynan talabalar (yoshlar) nutqiga qaratiladi.

- **Ishning maqsadi va vazifalari;** mazkur tadqiqotning maqsadi tilning ijtimoiy hayotida tutgan o`rni, tilning ijtimoiy xoslanishi va vazifasini o`rganishdan iborat. Ishda tilning ijtimoiy xoslanishi, uning jamiyatdagi vazifasini o`rganish, tahlil qilish va aniq xulosalar chiqarish vazifa qilib belgilangan.

-**Tadqiqot ob`yekt va predmeti;** "O`zbek tili va adabiyoti", "Til va adabiyot ta`limi" jurnalida e`lon qilingan maqolalar, oliy ta`lim tizimi o`quv qo`llanmalari va darsliklar magistr N.Azizovanning "Fan, taraqqiyot va yoshlar" ilmiy to`plamlaridagi maqolalari, "Ma`rifat", "Yosh kuch" viloyat va shahar miqyosidagi chop ettirgan ilmiy va badiiy maqolalari hamda 2008-yil "Nasaf" nashriyotida chop etilgan "Yoshlar nutqi madaniyati" nomli kitobi ishning ob`yekt va predmetini tashkil qiladi.

-**Tadqiqot uslubiyati va uslublari;** Ishda tahlil qilish, umumlashtirish, ziddiyatga qo`yish, qiyoslash kabi tekshirish usullaridan foydalanilgan.

-Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi;

Tilshunoslikda talabalar nutqi o`rganilmagan yangi soha bo`lganligi uchun fan sifatida shakllantirish, talabalar o`zbek tilining imkoniyatlaridan qanday foydalanayapti va qanday foydalanishi kerak ekanligi yoritib berilgan.

-Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tatbiqi; Oliy ta`lim tizimida metodik qo`llanma, interfaol darslar o`tishda, namunali va ochiq dars va muammoli darslar tashkil qilishda, maxsus kurslar tashkil etilganda ushbu ishdan foydalanish mumkin.

-Ish tuzilishi va tarkibi; mazkur tadqiqot kirish qismi, uch bob, bob bo`yicha xulosalar, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 96 sahifani tashkil qiladi.

-Bajarilgan ishning asosiy natijalari; Tadqiqotda jamiyat a`zolarining asosan, talaba yoshlarning til imkoniyatlaridan foydalanish holati, adabiy til, jonli so`zlashuv tili, xalq og`zaki tili, dialektal qatlam va uning sotsial mohiyati, nutq madaniyati asoslari kabi masalalar keng ravishda yoritib berilgan. Qolaversa, asosiy e`tibor, ulg`ayib kelayotgan barkamol avlod nutqi qanday bo`lishi kerakligi haqida batavsil fikr yuritilgan.

-Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashtirilgan ifodasi;

Bugungi zamonaviy yoshlarning ma`naviy dunyosini namoyon qiluvchi nutqiy axloq, nutq sifati masallalariga doir fikrlar jonli va hayotiy dalillar asosida bayon etilgan, muammolarning yechimiga doir mulohazalar magistrlik dissertatsiyasida o`z aksini topgan.

Ilmiy rahbar

Filol. Fan.nomzodi, professor

B.Mengliyev

Magistratura talabasi

N.Azizova

Kirish.

1.Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi;

Mustaqillik yillarida ona tilimizning qo`llanish sathi sezilarli darajada kengaydi. Milliy tilning rivojlanishi, jamiyat taraqqiyotiga, milliy o`zlikni anglashga imkon berdi. Yurtimizda oddiy fuqarolar yig`inidan to Oliy Majlisgacha amalga oshirilishi olib borilayotgan muloqotlarning davlat tilida ekanligi quvonarli hol, albatta. Bu esa mamlakatimizning barcha fuqarosini o`zbek tilida erkin, mantiqli, adabiy til me`yorlariga amal qilgan holda so`zlashishni talab etadi.

O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda ularning hayotga tadbiiq etilishini ta`minlovchi hukumat qarorlari shaklidagi me`yoriy hujjatlar asosida respublikamizda uzluksiz ta`lim tizimining poydevori yaratildi. Uzluksiz ta`limning barcha bo`g`inlarini boshqarish, jahon andozalari va zamon talablari darajasida yo`lga qo`yish, ularning har biri uchun xos bo`lgan xususiyatlar va imkoniyatlarni hisobga olgan holda, ta`lim – tarbiyaning yangicha tizimini shakllantirish mustaqil O`zbekiston taraqqiyotining negizi sifatida kun tartibiga qo`yildi.

Mamlakatimiz rahbari I.A.Karimov O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997- yil 29 – avgustida bo`lib o`tgan sessiyasida quyidagilarni aytgan edi: “ Biz shoshilamasdan, asosiy maqsaddan og`ishmay, izchillik bilan Milliy dasturni amalga oshirishimiz lozim. Shundagina u umumiy madaniyatni yuksaltirishga, farzandlarimizning jamiyatda o`z munosib o`rnini topishiga xizmat qiladi. Ularning kasbiy va ta`limiy dasturlarini ongli ravishda tanlash va egallashlari uchun huquqiy me`yorlarni, tashkiliy, ruhiy – pedagogik shart – sharoitlarini ta`minlashga ko`maklashadi.

Yigit – qizlarimizni jamiyat, davlat, oila oldida o`z ma`suliyatini chuqur anglab yetuvchi shaxslar etib tarbiyalashga zamin bo`lib xizmat qiladi”.¹

Shundan so`ng Prezidentimiz kadrlar tayyorlash tizimining shakllanishi va faoliyat ko`rsatishining asosiy tamoyillari xususida so`z yuritib, davlat ta`lim standartlarini joriy etish va ularning faoliyat ko`rsatish mexanizmini ishlab chiqish lozimligini o`qtirgan edi. Milliy dasturni amalga oshirishning birinchi bosqichidayoq o`rta maxsus kasb hunar ta`limi tizimida bu vazifa bajarildi. Bu sohadagi islohotlarni amalga oshirishning nazariy va huquqiy negizlari yaratildi.

Ta`lim – tarbiya jarayonining barcha jihatlarini qamrab oluvchi davlat ta`lim standartlari bugungi kunda yosh avlodning Vatanga sadoqat, yuksak ahloq, ma`naviyat va ma`rifat, mehnatga vijdonan munosabatda bo`lish hamda o`zi sevgan kasbini mukammal egallash yo`lida qunt bilan bilim olishlari uchun kafolat bo`lib xizmat qilmoqda. Umumtilshunoslikda, jumladan, o`zbek tilshunosligida ham keyingi yillarda ijtimoiy tilshunoslik sohasiga e`tibor birmuncha kuchaydi. Tilshunoslik sohaslarining tutash nuqtasida paydo bo`lgan va tadqiq etilayotgan mazkur fanning taraqqiyoti sohaslarining qay darajada o`rganilganligiga bog`liq, albatta.

Tilshunosligimizning shakllanajak lingvokul`turalogiya yo`nalishi asosiy diqqatini til madaniyatini o`z birliklariga qanday singdirish va ifodalashi saqlashi va namoyon qilishi muammolariga qaratiladi. Lingvokul`turalogik yo`nalishining shakllanishi va taraqqiyoti madaniyat tushunchasini til va jamiyat yaxlitligining o`ziga xos shakli sifatida tushunishga intilish kuchayotganligi bilan belgilanadi. Bunda til milliy madaniyat millat mentalitetini talqin etish vositasi sifatida namoyon bo`ladi.

¹ Karimov I.A. “Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori”, “O`zbekiston”, 1997, 14-bet

Lingvokul`turalogik yo`nalishining asosiy diqqati til madaniyatini o`z birliklariga qanday singdirishni va ifodalashni, saqlashni va namoyon qilishi muammolariga qaratiladi.

Milliy o`zlikni anglash milliy o`ziga xoslikni anglash demakdir. Milliy o`ziga xoslik esa bevosita millatning tili madaniyati, o`tmishi, ruhiyati, dunyoqarashi kabilarda aks etadi. Til dunyoni bilish, ruhiy munosabatlarni go`zallikni aks ettirish kabi vazifalarni bajaribgina qolmasdan, inson xulq – atvorini namoyon qiladigan bemisl boy xilqatdir.

Bizning yurtimizda axloq benihoya serqirrali, qiyosi yo`q tushuncha ko`nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir. Mustaqil O`zbekistonning qator davlatlar bilan ham iqtisodiy, ham siyosiy, ham madaniy aloqalari tobora faollanib borayotgan bir paytda, o`zbek millati, madaniyati dunyo yuzini ko`rsatayotgan davrda til birliklaridan to`g`ri va unumli foydalanish, yuksak til madaniyatiga ega bo`lish bugungi kunning dolzarb masalasiga aylanmoqda. Taniqli olim V.V. Veselitskiy 60 – yillarning boshlaridayoq: “Hozirgi nutq madaniyati bo`yicha tadqiqot olib borishning zarurligini isbotlab o`tirish ortiqchadir” – deb yozgan edi. Nutq inson ma`naviy qiyofasining ichki olami, saviyasi zohir bo`lishi bilan birga ijtimoiy taraqqiyot xususiyatlarini ham aks ettiradi. Tanlangan mavzuda jamiyatning eng sezgir qismi bo`lgan yoshlar (talabalar) nutqining lingvomadaniy va sotsiopragsmatik xususiyatlari tahlil etiladi.

Davr va fan taraqqiyoti tadqiqotchi zimmasiga har doim yangi ma`suliyat yuklaydi. Mamlakatimizda erishilgan milliy istiqlol va jamiyatda yuz bergan ma`naviy va mafkuraviy o`zgarish fan, xususan, o`zbek tilshunosligi oldiga muayyan talablarni qo`yadi. Ma`lumki, nutqda, chunonchi, nutqiy muloqotda millat ruhiyati aks etadi. Prezidentimiz “Ona tili – millatning ruhi” iborasini bejiz ta`kidlamagan edilar. Albatta, til orqali muomalaga kirishish muloqotning boshqa vositalarini to`la ravishda chetlab

o`tmaydi, chunki muloqot murakkab jarayondir. Inson ma`lum axborotni tinglovchiga yetkazishda tabiiy holda turli vositalardan foydalanadi.

Kishi jonli so`zlashuv jarayonida ma`lum axborotni qisqa va lo`nda ifodalashda, fikrning emotsionalligini va tasirchanligini oshirishda holat va sharoitdan kelib chiqib tilga yondosh bo`lgan noverbal vositalaridan foydalanadi. Muloqot jarayonida lisoniy va nolisoniy yo`l asosida ro`yobga chiqadi.

Nutqni jarayon sifatida o`rganish va uning ta`sirchanligini ta`minlash hozirgi tilshunoslik uchun dolzarbdir. O`zbek muloqot nutqining ilmiy tavsifiy o`rganish o`zbek tilshunoslikda endigina boshlandi. Asrlar davomida badiiy asar nutqini o`rganish an`anaga aylanib qolganligi sababli – bu badiiy asarlardan haligacha uzila olmagan edik. Shuning uchun o`zbek tilshunosligida nutqiy muloqot jarayonining badiiy harakatli ifodasi, turli ko`rinishlari va shakllari aynan yoshlar (talabalar), nutqida maxsus o`rganilmagan. Bu esa ushbu tatqiq etilayotgan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

2.Tadqiqot ob`yekti va predmetining belgilanishi;

“O`zbek tili va adabiyoti”, “Til va adabiyot ta`limi” jurnalida e`lon qilingan maqolalar, oliy ta`lim tizimi o`quv qo`llanmalari va darsliklar magistr N.Azizovaning “Fan, taraqqiyot va yoshlar ” ilmiy to`plamlaridagi maqolalari, “Ma`rifat”, “Yosh kuch” viloyat va shahar miqyosidagi chop ettirgan ilmiy va badiiy maqolalari hamda 2008-yil “Nasaf” nashriyotida chop etilgan “Yoshlar nutqi madaniyati” nomli kitobi ishning ob`yekt va predmetini tashkil qiladi.

3.Tadqiqot maqsadi va vazifalari;

Mazkur tadqiqotning maqsadi tilning ijtimoiy hayotida tutgan o`rni, tilning ijtimoiy xoslanishi va vazifasini o`rganishdan iborat. Qolaversa, lingvomadaniy yo`nalishning shakllanishi va taraqqiyoti madaniyat

tushunchasini til va jamiyat yaxlitligining o'ziga xos shakli sifatida tushunishga intilish.

Ishda tilning ijtimoiy xoslanishi, uning jamiyatdagi vazifasini o'rganish, tahlil qilish va aniq xulosalar chiqarish vazifa qilib belgilangan.

4.Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari;

Tilning ijtimoiy xoslanishiga bag'ishlangan mazkur ish ilg'or tajribalarga tayanilgan holda ijodiy rivojlantirildi, milliy tilimiz imkoniyatlari doirasida tahlil qilindi va talaba yoshlar nutqidan olingan ayrim misollar bilan boyitildi. Ishda jamiyat a'zolarining asosan, talaba yoshlarning til imkoniyatlaridan foydalanish holati, adabiy til, jonli so'zlashuv tili, xalq og'zaki tili, dialektal qatlam va uning sotsial mohiyati, nutq madaniyati asoslari kabi masalalar keng ravishda yoritib berilgan. Qolaversa, asosiy e'tibor, ulg'ayib kelayotgan barkamol avlod nutqi qanday bo'lishi kerakligi haqida batavsil fikr yuritilgan. Yoshlarimizning o'z oilalarida tilga bo'lgan hurmatlari qanday darajada bo'lsa, ota-onalari qanchalik e'tiborli bo'lsalar farzandlariga jamiyat ichida ana shu e'tabor orqali baholanadilar.

5.Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili;

Magistrlilik dissertatsiyasida O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, asosiy adabiyotlar va qo'shimcha adabiyotlar, davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar hamda internet saytlarining ma'lumotlari, shuning bilan magistr talabaning o'z ilmiy maqolalari, mualliflik asosidagi ilmiy to'plami o'rin olgan.

6.Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi;

Tilga yondashuvning tadqiqot uslubiyati va uslublari bo'lgan dialektik mantiq hamda dialiktika kategoriyalari, xususan, substansiya va akssidenssiya, tasavvufning gnoseologik ta'limoti tayanch tushunchalari asosida ish ko'rish tadqiqotning falsafiy bilish yo'li hisoblanadi. Ishda

tahlil qilish, umumlashtirish, ziddiyatga qo'yish, qiyoslash kabi tekshirish usullarida foydalanilgan.

7.Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati;

-Oliy ta'lim tizimi yo'nalishi talabalari uchun qo'shimcha ravishda metodik qo'llanma bo'lib xizmat qiladi;

-Ta'lim tizimida enterfaol darslar o'tishda, namunali va ochiq dars va muammoli darslar tashkil qilishda amaliy ahamiyat kasb etadi;

-Ilg'or pedagogik texnologiyalarga doir maxsus kurslar tashkil etilganda mazkur ishdan foydalanish mumkin.

8.Tadqiqotning ilmiy yangiligi;

1. Tilning ijtimoiy vazifasi- uning shakllanish jihatidan aniq tarixiy me'yorlariga bog'liq ekanligi asoslandi.

2.Tilshunoslik fani va nutq madaniyati til va jamiyat o'rtasidagi aloqadorlikni yaxlit tizimga ega bo'lgan holda o'rganadi va mezonlarini belgilab beradi.

3.Tilning jamiyatga, jamiyatning tilga aloqadorligi tilning ijtimoiy vazifasining tayanch nuqtasi ekanligi aniqlandi.

4.Tilshunoslikda talabalar nutqi o'rganilmagan yangi soha bo'lganligi uchun fan sifatida shakllantirish, talabalar o'zbek tilining imkoniyatlaridan qanday foydalanayapti va qanday foydalanishi kerak ekanligi yoritib berilgan.

9.Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi;

Mazkur tadqiqot kirish qismi, uch bob, bob bo'yicha xulosalar, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 96 sahifani tashkil qiladi.

Lingvomadaniy til hodisalarida shu til sohibi bo'lgan millatning madaniy qadriyatlarini aks etishi.

Lingvokul`turologiya – tilni madaniyat bilan mushtaraklikda tadqiq qiluvchi tilshunoslik yo`nalishi va lingvistika va madaniyatshunoslik fanlarining tutashuv nuqtasida vujudga kelgan fan yo`nalishi. Sosio – atamasi ijtimoiy qatlam tushunchasini anglatadigan so`zdir. Pragmatika – nutq vaziyati, nutq shaklini o`zida aks ettiradi. Sotsiopragmatika tilshunoslikning yangi yo`nalishi bo`lib, til hodisalarining turli sotsiol qatlamning nutq vaziyatidan kelib chiqqan holda qo`llanishini ifodalaydi.

Birinchi bob. Nutqning ijtimoiy xoslanishi haqida.

1.1. Nutqning yoshga ko`ra xoslanganligi. Barchamizga ma`lumki, inson qalbiga yo`l avvalo ta`lim – tarbiyadan boshlanadi. Ta`lim tarbiya masalasini esa ona tilida savod chiqarish, tilni xurmat qilish, adabiy tilda so`zlashish madaniyati, chiroyli so`zlash (so`zamollik) kabi holatlar til fani bilan bog`laydi. Zeroki jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi davrida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq inqirozning oqibatlariga qarshi kurash yo`lida bank va moliya tuzilmalariga qo`shimcha yordam berish chora tadbirlari ishlab chiqildi.

Tilda milliy mentalitetning aks etishi tilshunoslik, falsafa kabi fanlarning azaliy va hamisha navqiron mavzusi. Biroq ma`lum vaqt bu muammo tilshunosligimizda chetlab o`tilganligi sir emas. Shu bois Prezidentimiz Islom Karimov "Fidokor" gazetasi muxbiri savollariga bergan javobida: "Ona tili - millatning ruhidir. Jamiki ezgu fazilatlar insonga ona allasi, uning betakror jozibasi orqali singadi", - deya bunga alohida urg`u bergan edilar. Bu esa til va madaniyat muammosini tilshunoslik kontekstida o`rganishning dolzarbligini belgilaydi.

Tilshunosligimizning shakllanajak lingvokul`turologiya yo`nalishi asosiy diqqatini til madaniyatini o`z birliklariga qanday singdirish va ifodalashi, saqlashi va namoyon qilish muammolariga qaratiladi. Lingvokul`turologik yo`nalishining shakllanishi va taraqqiyoti madaniyati tushunchasini til va jamiyat yaxlitligining o`ziga xos shakli sifatida tushunishga intilish kuchayganligi bilan belgilanadi. Bunda til milliy madaniyat, millat mentallikni talqin etish vositasi sifatida namoyon bo`ladi.

O`rganilgan ma`lumotlarga ko`ra aytish mumkinki, bugungi kunda lingvokul`turologiya bir necha yo`nalishiga ega: frazeologik, konseptologik,

leksikografik, uslubiy, lingvodidaktik kabi. Barcha yo`nalishlardagi umumiy jihatlariga e`tibor qilinsa, hozirgi zamon kul`turologiyasining o`rganish predmeti ikki har xil kod – til va madaniyatning o`zaro munosabatida hosil bo`luvchi lisoniy birliklarining madaniy semantikasini o`rganish tashkil ettirdi. Zero, har bir shaxs bir vaqtning o`zida madaniy shaxs hisoblanadi. Shuning uchun til belgilari til sohiblarining umuminsoniy va madaniy milliy mentalligini aks ettiruvchi madaniyat “tili” funksiyasini bajarish qobiliyatiga ega.

Lingvokul`turologiyaning vazifasi til birligining til sohibiga ma`lum yoki maxsus tahlil bilan tiklanadigan madaniyat “kodlari”ga munosabati asosida madaniy qiymati, ya`ni “madaniy bilim” ni bayon etishdan iborat.

Madaniy belgili birlik sifatida tilshunoslikda lingvokul`turema tushunchasidan foydalanilmoqda. Lingvokul`turema sathlar bo`yicha yoyilgan majmuaviy birlik bo`lib, uning shakli (nomema+- lisoniy ma`no), mazmunini esa (lisoniy ma`no – madaniy mazmun) ko`rinishda tasavvur qilinadi. Lingvokul`turemani tushunish uchun tadqiqotchi katta e`tiborni, uning mundarija unsuri sifatidagi ma`nodir imkoniyat sifatida qatnashuvchi ikki madaniy mazmunga qaratadi.

Tadqiqotchilarning takomillashuviga, lingvokul`turema sifatida o`z va o`zlashma qatlam birliklari, jonivor, o`simlik, shaxs nomlari, barqaror birliklari, tildagi metaforik va obrazli leksika, tilning uslubiy xazinasini, miflashgan madaniy – lisoniy birliklar, tilda aks etgan urf – odatlar, ritual va marosim nutqiy, axloqiy va odob kabilar namoyon bo`ladi.

Insonning ma`naviy kamolotga erishuvida, jamiyatning ma`daniy – ma`rifiy rivojida ona tilining o`rni favqulotda muhimdir. Til milliy ma`naviyat, ma`rifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas ko`zgidir. Hadisi shariflarda “ kishining zebu ziynati, go`zalligi uning tilidadir” deyiladi. Qadim – qadim zamonlardan beri har bir millat, har bir

qavm o`z tiliga buyuk hurmat bilan qaraydi. Bu tilning sohir ohanglari og`ushida erimoqdan adoqsiz huzur tuyirdi.

Bu tilga timsol topmaslikdan taskin topadi. Bu nodir boylikni dunyolarga bermaslikka hozir turadi. Chunki til millat degan birlikning tamal toshi, u boy berilsa, millat ham boy beriladi. O`zbekiston Prezidenti I. Karimovning quyidagi so`zlarida ulkan ma`no bor: “ Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singirdi....

Ona tili – bu millatning ruhidir. O`z tilini yo`qotgan har qanday millat o`zligidan judo bo`lishi muqarrar.” Demakki, millatning borligi va birligining bosh belgisi tildir. Bosh maqsadi Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq faravonligi bo`lmish milliy g`oyamizning kurashuvchanligini ta`minlashda mukammal ma`naviyat va ma`rifat hal qiluvchi omil bo`lib, ona tiliga muntazam muhabbat, davlat tiliga barqaror ehtirom ana shu omilni shakllantiradi, unga kuch beradi, ko`lam baxsh etadi. Shuning uchun ham milliy g`oya targ`ibida “ millatning o`lmas ruhi bo`lgan ona tiliga muhabbat” tarbiyasi muhim o`rin tutadi. Muqaddas hadislarda “ Olimning buzilishi – olamning buzilishi” degan purhikmat gap bor. Darhaqiqat, haqiqiy ziyolilar, ma`rifat va san`at ahli azro`yi – azaldan el – ulusning dardu quvonchiga hamnafas , hamdard bo`lib kelgan. Ezgulik va haqiqat timsoli bo`lmish bu zotlar el – yurtning uyg`oq tirik vijdonidir.

Afsuski, hayotda sanoqli ziyolilar san`atkorlargina bunday sharafga loyiq bo`lishadir. Biz hozir ana shunday butun shaxslarga har qachonkidan ham ko`proq muhtojmiz. Chunki qayerga bormang, qayerda bo`lmang, qanday soha yo`nalish bo`lsin undagi kamchiliklarni bartaraf etish asosan ana shu fozilu ulamolar, olimlarning qayerdanligiga borib taqaladi.

Bilmadim, kimga qanaqa! Uning nazarida, o`z tilingni unutma, ona tilingni bilmasliging mumkin emas, deb hadeb pand – nasihat qilaverish ham kishiga erish tuyiladi. To`g`ri, shunday kimsalar borki, o`z millati

tilini bilmaydi. Millatparvarlik, millat o`zligi, urf – odati, tarixi, madaniyati qon – qoniga singib ketgan odam o`z ona tilini bilmasligi mumkin emas. Tilni bilmaslik tasavvurga sig`maydigan hodisa uyatli holat. Shu millatning vakili bo`lib, tilini bilmaslik hech qanday tushuncha bilan oqlab bo`lmaydi...

Til millatning o`zligini tutib turadigan, millatning o`y – qarashi, o`ziga xosligi birlashadigan nuqtadir. Bundan uzilib qolgan odam, men shu millatning vakiliman deb aytolmasa kerak. Aytgan taqdirda ham botinida uyat bo`lsa, agar yuzi qattiq bo`lmasa, o`zini o`ng`atsiz sezadi. Ulug` tushunchalar, inson tanasiga ona suti, ona allasi bilan singan shaffof tuyg`ular hech qachon izohga muhtoj emas. Til ham ana shunday eng ulug` va mo`tabar tuyg`ular sirasiga kiradi. Ona sutini baholab bo`ladimi? Imon – e`tiqodning bahosi bormi? Til ham shunday! ...

Til bilmaslik odam uchun qaysidar xato xatti – harfakatlarini evaziga taqdirning og`ir jazosi, deb o`ylayman. O`zbek bo`la turib, ona tilini bilmaslik, o`z tilida yaxshi gapira olmaslik sharmandalik emasmi?... Nima emish, chetga chiqaverib, tilim chet tiliga o`rganib qolgan, o`zbek tilida gapira olmayman... Mana, ba`zi yoshlarimizning tilimizga bo`lgan hurmati. Xorijda uzoq muddat bo`lgan kishilar yaxshi bilishadi, o`zga zabonda so`zlaguvchi kishilar orasida yurib, o`z ona tilida birgina gap, birgina so`z eshitishga zor bo`lasan gohida. Ana shunday kunlardan birida shahar odamlari orasida kimdir sizga o`z ona tilingizda “ Assalomu aleykum”, desa, “ Men o`zbekman” desa, boshingiz gir aylanib yuragingiz qinidan chiqqiday gupillab ura boshlamaydimi? Tasavvuringizda chaqmoq chaqqandek bo`lmaydimi? Shunday holatda ona tilingizda so`zlagan inson siz uchun yaqin qarindoshingiz bo`lib tuyiladi, beixtiyor unga bag`ringizni ochasiz, chunki siz u bilan sehrli, bir tilda so`zlashasiz. Zero, bu til ota – bobongiz, ajdod – avlodlaringizning ruhi, muborak yodi ularning tafti va haroratini olib keladi. Bu, til sizning qoningizda, o`zlik tomiringizda oqadi.

Bu tilning sehri bizning tani – jonimizga singib ketgan. Bu til beshigingizni alla bo`lib tebratgan. Bu tili vaqti – soati kelib, lopillagan tobutingizni qayg`u – alam, yig`i bo`lib kuzatadi. Dunyodagi barcha muqaddas tushunchalarni, insoniylikni ushlab turgan ustunlarga qiyos etsak va shu ustunlardan biri ona tilini olib tashlasak, insoniylik qulab, yerparchin bo`lib ketadi.

Men o`nta tilni bilsam, yaxshi. Ularda mukammal so`zlashsam, yanayam yaxshi. Agar o`z tilimni yaxshi bilmasam, o`zga tilni o`rganganim bir tiyin, sariq chaqaga arzimaydi – ku. Tilla tog`ora teshik bo`lsa, unda baribir suv turmaydi. O`zlik tomiri otmagan odamning dunyoqarashi ham qum ustida tiklangan imoratga o`xshaydi – uzoq turmaydi.

Insonning ma`naviy kamolotga erishuvida, jamiyatning madaniy – ma`rifiy rivojida ona tilining o`rni favqulodda muhimdir. Til milliy ma`naviyat, ma`rifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas ko`zgidir. Jamiyatning har bir a`zosi, har qanday mutaxassis, zamon bilan hamqadam har qanday kadr eng avvalo, o`z ona tilining sadoqatli sohibi bo`lmog`i lozim. Ona tiliga chinakam sohib bo`lmoqlikning bosh sharti esa uning tugunmas imkoniyatlarini tugal egallamoq, ya`ni fikrni mustaqil, ravon, go`zal va lo`nda ifoda eta olmoqdan iborat nutqiy madaniyat mamlakatlarini shakllantirmoqdir, zotan nutq madaniyati tildan bemalol va maqsadiga muvofiq tarzda foydalana olishni ta`minlaydigan ko`nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir.

Davlatimiz rahbarining “O`z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon, go`zal va lo`nda ifoda eta olmaydiigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursisida o`tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin” degan so`zlarini hamisha yodda tutmoq kerak. Demakki, tilda bir fikrni bir qancha shakli – shamoyillarida ifodalash imkoniyatlari mavjud, aynan qaysi shaklni tanlash muayyan fikr va muloqot vaziyati uchun eng uyg`un

ifodani topa bilish nutq egasining tilga sohiblik darajasi, mahoratu malakasi, ma`rifatu ma`naviyatiga bog`liq. Muloqot vaziyatini yetarlicha baholamasdan turib, fikr ifodasi uchun tanlangan lisoniy hisob, har qancha to`g`ri va go`zal bo`lmasin, maqsad nishoniga yetib bora olmaydi. Bunday ifoda, hatto, boshga balo keltirishi ham mumkin. Go`zal va nafis nutq sezgisi hamda unga azaliy ixlosu e`tiqod an`anasining ibtidosi, ayniqsa, ko`hna Sharqda juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Donishmand Sharq to`g`risida(Frot va Dajla daryolari oraliq`ida yashagan qadimgi shumerlarda) bundan besh ming yillar burun barpo bo`lgan eng "keksa" muassasalarida bo`lmish ilk maktablarning besh vazifalaridan biri ham bahoni to`g`ri, aniq mantiqli so`zlash va yozishga o`rgatishdan iborat bo`lganligi fikrimizning yorqin dalilidir.

Muloqot tizimini tahlil qilish borasida qo`llanilayotgan metodlarning asosiy qismi, xuddi tilshunoslikning boshqa sohalarida bo`lganidek, tizim strukturasi xos belgilarni va ushbu strukturani tashkil qiluvchi element, uzvlarni farqlash, ularni guruhlarga ajratish sari yo`naltirilgan. Ana shunday metodlardan biri Amerika sotsiologiyasida shakllangan konversatsion tahlil (ing. Conversation- "so`zlashish") metodi bo`lib, uning doirasida o`ta tartibsizdek tuyulayotgan so`zlashuv jarayonida qandaydir tartib bo`lishi va bu tartib nimalar vositasida boshqarib, nazorat qilinib borilishini o`rganish maqsadi qo`yiladi. O`tnometodologik tamoyillarga asoslangan ushbu turdagi tahlil jarayonida tadqiqotchilarning diqqat-markazida suhbatdoshlarning o`zaro hamkorligining qanday ta`minlanishi, oddiyroq qilib aytganda, suhbat davomida ular kim va qachon gapirishini qanday belglashlari masalasi turadi. Bu sohadagi ilk tadqiqotlar mualliflari Harvi Saks, O`manuel SHegloff va Geyl Jeffersonlar nutqni faoliyat turi sifatida qarashib, muloqot ishtirokchilarining o`zaro munosabatga kirishishi jarayonida qanday harakatlar, aniqrog`i, faoliyat turlari (masalan, dialogning boshlanishi va tugallanishi, so`zlashish navbatining

almashinuvi hamda ta`rif qilish va uning qabul yoki inkor etilishi kabi harakatlarning bajarilishi) voqelanishi kabi masalalar bilan qiziqqan edilar

Muloqot strukturasi tarkib topishi tahlilida "o`yin" metaforasidan foydalanib kelinayotganligi ma`lum. Bu o`xshatishning tashabbuskori L. Vitgenshteyn bo`lib, keyinchalik uning izdoshlari bu tamoyilni turli ko`rinishlarda taraqqiy ettirish va bevosita tahlil jarayoniga tadbiiq etish yo`llarini axtardilar. Keyinchalik ba`zilarda konversatsion tahlilga svetafor harakati metaforasini tadbiiq qilish fikri paydo bo`ldi, zero, chorrahadagi svetafor chiroqlari to`xtovsiz va hisobsiz harakatni hech qanday to`qnashuvsiz tartibga solish imkonini beradi. Muloqot tizimi tartibini bozor iqtisodiyoti tartibiga o`xshatish ma`qulroq bo`lsa kerak . Bozorda, birinchidan har kim tejamkorlikka intiladi, kam sarf bilan ko`p foyda orttirish hamida bo`ladi, ikkinchidan, har bir bozorning o`z tartib-qoidalari, xaridor va sotuvchi o`rtasidagi munosabatni tartibga solish talablari mavjud. Nutqiy muloqotda ham xarjni kam sarflab (lisoniy tejamkorlik) kommunikativ maqsadga erishish niyati hukmrondir. Muloqot o`z menejment tizimiga ega va bu tizim, birinchi navbatda, ma`lum ijtimoiy guruh uchun umumiydir. Ushbu boshqaruv (menejment) qoidalariga amal qilish muloqot ishtirokchilariga "kamyob tovar" - so`zlash navbatini olish imkonini beradi.

Ma`lum bir nutqiy harakat ijrosining boshlang`ich nuqtasi bo`lgan so`zlashish navbatini olib o`z tartib-qoidasiga ega. Bu navbat suhbatdoshlarning o`zaro roziligi va suhbat tashabbuskorining tuzgan rejasi ham ushbu rejani muayyanlashtirish maqsadida tanlagan yo`li, amallari bilan bog`liq. Suhbatdoshlar, odatda, bir-birlariga ma`lum ko`rinishda so`z navbati tugaganligi, ikkinchisi o`z nutqiy harakatini boshlashi lozimligi haqida ishora qiladilar. So`zlash navbatini olishni (turn - taking) tartibga soluvchi qoida va normalarning ko`pchiligi doimiy bo`lib, ularga rioya qilish qat`iy talab qilinadi. Bunday normalarning mavjudligi muloqot tizimini boshqaruvchi tamoyillarning shakllanishiga sabab bo`ladi va ushbu tamoyillarga amal qilish natijasida

shaxslararo munosabatning nutqiy voqelanishi ko`pgina hollarda ritual, qoliplashgan ko`rinishni oladi. Buni ayniqsa, salomlashuv, hol-ahvol so`rashish, xayrlashuv kabi fatik dialoglarda yaqqol ko`ramiz. Navbat almashinuvining bu yo`sinda tartibga solinishini ayrim tilshunoslar, yuqorida aytilganidek, shaxmat o`yiniga qiyoslaydilar hamda navbat almashinuvi dinamik (harakatdagi) jarayon sifatida tavsiflanadi, zero, bir hamsuhbatning har bir "qadami" ikkinchisi tomonidan inobatga olinib, bo`lg`usi "qadam" (harakat) rejasi tuziladi va amalga oshiriladi.

Nutqiy harakatlar, odatda, juftlik ko`rinishida faollashadilar. Nutq navbatining bunday almashinuvini etnometodologlar "qo`shni juftlik" (adjacency pair) atamasi bilan nomlaydilar. Bunday "qo`shnichilik" suhbatdoshlarning biri javob harakatini bajarishi shart bo`lganda yuzaga keladi. Masalan, biri salomlashganda, ikkinchisi ham salomlashmog`i darkor, savol-javob harakati ikki variantda bo`lishi mumkin. Binobarin, taklif qabul qilish yoki inkor etish, ayblovg`a e`tiroz bildirish yoki e`tirof etish mumkinligi ma`lumdir.

Muloqot - murakkab ko`rinishdagi lisoniy (nutqiy) tafakkur faoliyatidir. Bu faoliyat natijasida nutqiy tuzilmalar hosil bo`ladi va ushbu tuzilmalar strukturasi lisoniy tafakkur faoliyatining "iz"lari saqlanadi. Ammo ushbu "iz"larni topish va ularni qismlarga ajratish oson emas, zero, muloqot birligi - matnning tarkib topishida til tizimining barcha elementlari inson ongida tug`iladigan nutqiy qolipni voqelantiruvchi vositalarga aylanadilar. Bundan tashqari, muloqot matnining shakllantirilishida nolisoniy birliklarning ham ishtirok etishini unutmaslik lozim.

Muloqot - maqsadli faoliyat va bu faoliyat doirasida bajariladigan har bir harakat ham o`z maqsadiga, intentsiyasiga ega. Muloqot matnida nutqiy harakatlarning intentsiyasi va mazmuni sintagmatik qatordagi boshqa birliklar ta`sirida ma`lum siljishlarga, o`zgarishlarga uchrashi mumkin. Demak, matnda kommunikativ va interaktsiya - hamkorlik maqsadlari o`zaro birikadilar.

Muloqot intentsiyasi uzatilayotgan axborotning negizini tashkil qiladi. SHu sababli muloqot jarayonida soʻzlovchi tinglovchiga yetkazish istagida boʻlgan axborotni qanday uzatishi va umuman ushbu axborotni muloqot matniga kiritish yoʻllari masalasiga qiziqish kuchaymoqda. Muloqot maqsadini bu yoʻnalishda oʻrganishda asosiy eʼtibor muloqotning kognitiv jarayon sifatida kechishiga qaratiladi. Masalan, muloqotga kirishayotgan shaxsning asosiy maqsadi axborotni uzatish boʻlmasdan, balki tinglovchini ushbu maqsadni anglashga undashdir. Aynan shuning uchun ham kommunikativ birlik mazmuni voqelik haqidagi xabar bilan chegaralanib qolmasdan, balki propozitsiya mazmuniga qoʻshimcha maʼnolarni ham ifodalaydi (Bunday qoʻshimcha maʼno turiga, masalan, emotsiyani kiritish mumkin).

Maqsadli ifodalanadigan kommunikativ mazmun va soʻzlovchi istagi bilan bogʻliq boʻlmagan holda tinglovchi idrokida (qabulida) hosil boʻladigan informativ mazmun bir-birini inkor qilmaydi, aksincha, ular oʻzaro qorishib, birikishib, muloqotning samarasini taʼminlovchi omilga aylanadilar. Kommunikativ va informativ mazmunlar uygʻunligi muloqot tizimi makrobirligining yaxlitligini taʼminlaydi. Hozirgi paytda bunday yaxlitlik xususiyatiga faqatgina diskurs ega ekanligi eʼtirof etilmoqda.

Diskurs - nolisoniy omillar (pragmatik, ijtimoiy-madaniy, ruhiy) bilan birgalikdagi matn; voqea kechishi nuqtai nazaridan qaralayotgan matn; maqsadli ijtimoiy harakat sifatida qaraladigan nutq.

Matnning turgʻun, tayyor mahsulot, diskursni esa kechayotgan nutqiy muloqot jarayoni sifatida talqin qilinishi ularning keskin farqlanishiga sabab boʻladi. Aberland matnni turli joyda, turli paytda paydo boʻlishi mumkin boʻlgan predmet, diskursni esa aniq zamon va makonda kechayotgan hodisa deb hisoblaydi. Uning qayd etishicha, "matndan cheklanmagan miqdorda foydalanish mumkin, uni bir joydan ikkinchisiga koʻchirish imkoni bor, diskurs - hozirgina kechayotgan jarayon, u har safar qayta yaratiladi". Ushbu tavsif olim "predmet" va "mahsul(ot)" tushunchalarini farqlamasligidan guvohlik

beradi: "Matn soʻzsiz lisoniy mahsulotlar, diskurs" - lisonning yaratuvchanlik sohasi (namunasidir).

Diqqat bilan qarasaq, Haqaberlandning fikrini ikki xil izohlash mumkin. Birinchidan, olim ikkala hodisani ham natija, mahsul sifatida qaramoqda, yaʼni matn - kechgan muloqot natijasi, mahsuli (ogʻzaki matn) yoki yozuv faoliyati, nashr natijasi (yozma matn). Diskurs, oʻz navbatida, tugʻilgan gʻoya, kommunikativ maqsad (intentsiya) natijasidir. Ikkinchidan esa, matn moddiy obʼekt sifatida nomoddiy obʼekt - diskursdan farqlanmoqda.

Muloqot - axborot almashuv jarayoni, uning maqsadi ham shu. Axborot uzatish yozma yoki ogʻzaki usulda kechishi bilan unchalik farq qilmaydi. Hatto dialog ham yozma nutq vositasida kechishi mumkinligini bilamiz (Masalan, diplomatik notalar almashinuvi, xufyona yozishmalar, "Mehrobdan chayon"dagi Anvar va Raʼnoning yozma sheʼriy sevgi izhori kabilar).

Soʻzsiz, "diskurs" "matn"ga nisbatan kengroq mazmunda talqin qilinmogʻi kerak. ha, diskurs - bir paytning oʻzida ham lisoniy faoliyat jarayoni, ham faoliyatning mahsulidir. Diskursiv faoliyat mohiyatí bilim (maʼlumot) berish hamda yangi bilimni shakllantiruvchi hodisadir. Bilim uzatilishi va yangidan shakllanishi uchun esa matn yaratilmogʻi darkor, demak, matn diskursiv faoliyat kechayotgan paytning oʻzidayoq yaratila boshlaydi. Maʼhuli, qiyoslanayotgan bu ikki hodisani "giperonim" - "giponim" munosabatda oʻrganishdir. Diskurs inson ongli faoliyatining maʼlum bir turi, turkumi boʻlsa, matn uning bir koʻrinishidir.

1.2.Nutqning jinsga ko`ra xoslanganligi.

Til har bir inson, har qaysi millatning botinidagi yog`du. Shu yog`du millatning kelajagining yo`lini ravshan qilad. Bugun ba`zi qoshu ko`zi qora, yosh navqiron millatdoshlarimizning ona tilimizni oliftalik bilan o`zga tillarga qorishib yuborishi ensamni qotiradi. Shunday gapirsam , zamonaviy bo`laman deb o`ylaydi. Ust kiyimning bir yengini kesib tashlab, bir yengini kiyib ko`ylak ustidan belqars bog`lab yursangiz, do`ppining ustidan kepka ham qo`ndirib olsangiz, masxarabozdan farqingiz qolmaydi – ku! ...

Ruscha – inglizcha – o`zbekcha turlicha qorishmada so`zlashga urunish zamonaviylik emas, balki o`ta madaniyatsizlik, saviyasizlikdan o`zga narsa emas.

“Bir kishi donodan so`radi: - falon obid haqida na deya olursanki, o`zgalar aning o`zidan ta`na qilib, ko`p so`z ayturlar. Dono u obid bilan sira suhbat qurmagan edi, shu bois dedi: - Zohirida hech ayb ko`rmasmen va botinida ne aybi borin bilmasmen” . Ya`ni tashqi ko`rinishda kamchilik yo`q, ammo so`zlarni tinglana turib, uning hamdi haqida fikr bildirish amri maholdir. Tug`ilgan odam vaqti soati yetgach, albatta o`ladi. Undan hech bir nishona qolmaydi. Lekin uning so`zlari oqil, ezgu bo`lsa, boshqalar yuragidan joy olib ulgursa, uning nomi mangu qoladi. Inson ikki narsa tufayli qarilik nimaligini bilmaydi: biri – xush qirq, ya`ni biri – oqil so`zlamaklik. Odamdan qoladigani ham oqil so`z. Hamisha ochiq, samimiy so`zlovchi odam mardona yashab, mardona o`ladi.

Xalqimiz fitratida latif so`zlamozlikka intilish bor. Latif so`zlash barcha davrlarda qadrlanadi. Qo`pol ifodadan barcha nafratlanadi. Ma`lum bir holatni ifodalovchi so`z quloqqa qo`polroq eshitilgani uchun ramzlardan foydalaniladi. Masalan: “ falonchi o`ldi”, yoki “falonchi o`lib qolibdi – da ” deyilmaydi, “Qaytish qildi”, “Omonatini topshirdi” yoki “bandalik”da

deyiladi. “Tug`on” deyish ham qo`pol eshitilganligi sababli “ko`zi yoridi” yoki erkalagansimon “qo`ziladi” deb ham qo`yiladi. Har qnday xunuk xabarni ham dono odam chiroylu tarzds ifoda etib berishi mumkin. Buning uchun odam aytadigan so`zining ma`nosini yaxshi bilishi kerak. So`zning ta`sirini avval o`zi his qilishi shart. Keyingi yillarda bizda so`zni his qilmaslik, so`zni tushunmay ishlatish ancha ko`payganga o`xshayapti. Bu holat choyxonadagi suhbatlarda uchrasa ranjimasak ham bo`lar. Ammo matbuot, radio va televideniyadagi yosh hamkasblarimiz faoliyatida tilga e`tiborsizlik tez – tez uchrayaptiki, bu g`oyat achinarli. Bir kuni teleboshlovchi ko`rsatuvlar rejasini e`lon qilgach, “maza qilib hordiq oling”, desa ajablanibman. Chunki “hordiq” – charchoq demakdir va hordiq olinmaydi, balki chiqariladi. Agar boshlovchining so`zlarini tarjima qilsak, “ ko`rsatuvlarimizni tomosha qilib, maza qilib charchang” , degan ma`no chiqadi. Ehtimol, boshlovchi adashmagandir, ko`rsatuvlarni tomosha qilgan chindan ham charchar, yana Xudo biladi! Televideniya reklamasida bir gazeta maqtalib, “Maroqli hordiq olasiz”, - deyilyapti. Charchashning maroqlisi qanday boo`lishini tasavvur qilib ko`raylik. Shunga o`xshash savod olinmaydi, savod chiqariladi. Chunki “savod” – “qora” demakdir, ya`ni “hajar ul - asvod” - “qoratosh” demakdir. Mumtoz she`riyatda “ko`z qarosi”, “ko`z savodi” tarzida ham qo`llaniladi.

“ Ko`z sabvodin ayladi kiprikllaring Parvezni Ne ajab bo`lsa jamoling shavqidin gulbez (gul hidini sochuvchi) ko`z”

Qalbi ma`rifatidan xoli, qorong`ulik asoratidagi odamni “ savodxon” deyish kerak, biz esa nechundir bilimlarni nazarda tutamiz. Aslida esa kishi qalbidagi qorong`ulik haydab chiqarilib, ilm nuri bilan yoritiladi. Ya`ni savod haydaladi, chiqariladi, ziyo esa olinadi. O`zbek tiliga e`tiborni kuchaytirish maqsadida Yevropadan kirib kelgan so`zlar o`rniga yangilari qidirib topila boshladi – ku, bu kulgili hollarni ham yuzaga chiqardi. Masalan, “ adres” – “turarjoy” o`rniga “ manzilgoh” deb yozish boshlandi.

Bitta chet soʻz oʻrniga ikki – arab va forsha soʻzlar qoʻshildi. Oʻzbekchaga tarjima qilsak – “joy,joy” degan maʼno kelib chiqadi. Shunga oʻxshash “ axborot” atamasini olsak, “ xabar” birlikshaklida, koʻplik shaklidagi “xabarlar” arabchada “axbor” deyiladi.

Yaʼni unga koʻplik qoʻshimchasi qoʻshilyaptiki, bu “ xabarlar” degan maʼnodadir. “Suxandon ”, “diktor” maʼnosini bermaydi. “diktor” – aniq va tiniq talaffuzi odam. Suxandon gapga usta, gapdon odam. “Dastur” atamasi – “pragramma” maʼnosini bermaydi. “Dastur” – “qoʻllanma” demakdir. Behayo va beʼmani qoshiqlarda sizni oʻrinsiz ishlatish hollari shunchalar koʻpki, aytib ado qilib boʻlmaydi.

Bu haqida gapirishning oʻzi ortiqcha chunki beʼmani qoʻshiqlar selini toʻsuvchi toʻqon buzib tashlangan. Sanʼatda soʻzni oʻrnida ishlatmaslik, maʼnoni buzish – nafosatni boʻgʻib oʻldiradi. Qoʻshiq sanʼatidagi nafislik, latiflik, latiflik boʻgʻilib, oʻlim talvasasida yotibdi. Muxbirlarning, xususan, sport shaxrlovchilarning gaplari ham tahlil doirasiga sigʻmaydi. “falonchi toʻpni boshi bilan tepib kiritdi” – “burchak toʻpi amalga oshirildi” degan gaplarga “ axmoqona” deb taʼrif bersak ham haqqimiz ketmaydi. Chunki aqlli odam toʻp bosh bilan emas, oyoq bilan tepilishini biladi. “Burchak toʻpi”, “jarima toʻpi” degan sifatlar qanday aql bilan kashf etilgan, bilmaysiz. Shu kabi xatoliklar koʻpki, ularni bartaraf qilish har bir qadam ahlining burchi hisoblanadi. “Xato qilmoqlik bordir, tuzatmaslik esa ordir” deganlaridek yoshlarda kamchiliklar uchrab turishi tabiiy. Kaminada ham shunday xatoliklar boʻlgan (ehtimol hozir ham bordir, buning uchun uzr soʻrayman, xatoyimni aytganlarg minnatdorchilik bildiraman.)

Biz “lutfan” degan soʻzni ishlatishni yaxshi koʻramiz. Taklifnomalarda “toʻyga lutfan taklif etamiz” deb yozamiz. Oʻzimizcha chiroyli shaklda taklif qilgandekmiz, Soʻzning maʼnosini bilgan odam esa bu taklifnomadan gʻashlanishi mumkin. Chunki lutfan lutfan taklif

qilishimiz, “asli sizni to`yimizga aytishga arzimaydigan odamlardan emassiz-ku, lekin bizning marhamatimiz kengligi tufayli istisno sifatida taklif qilyapmiz”, degan ma`noni anglatadi. Agar shu chiroyli so`zni o`z o`rniga qo`yib, “To`yimizga lutfan tashrif buyuring”, desak go`zal ma`noni bayon qilgan bo`lamiz. Ya`ni, “marhamatingizni ayamay, to`yimizga tashrif buyurib bizlarni quvontiring” degan bo`lamiz. Islomda murojaat qilinayotgan odamning hurmatini ado etish, martabasini balandroq qo`yish odati bor. Shu bois ham birodarimizga “taqsir” deb murojaat qilamiz. Taqsir so`zining ma`nosi nima? Ba`zan ko`pchilikka “taqsirlar” deb murojaat qilishchi? Bu do`stim, sizning martabangiz menikidan balandroqdir degan ma`noda va bu kamtarlik belgisidir. Kishining kishi til, shirin so`z orqali bo`ladi. “Sen” ham “Siz” ham bir og`izdan chiqadi deyдилar. Xalqimiz “Siz” ga odatlangan. Shu bois ham Rasululloh (s.a.v.) nomlari tilga olganimizda ehtirom bilan sizlaymiz.

Ruslarda, arablarda, turklarda, hatto, ota – onalarini ham sensirash odati borki, shu bois ham Payg`ambarimizga (alayhissalom) nisbatan ham “sen” shakli qo`llaniladi va bu ularda ayb sanalmaydi. Bizda hurmatsizlik hisoblanadi. Ayrim tarjimoniyurtdoshlarimiz shu masalaga e`tabor qilishlari kerak. Hayotda barchani sensiraydiganlar ham uchrab turadi. G`oyo sizlasa, amal otidan tushib qolganday tuyulsa kerakda. Sensirash bizda manmanlikni namoyish qiladi, xolos.

Vodiy tomonlarda go`zal odat bor. Farzandlarini ham sizlaydilar. Toshkentda kishining o`zi bo`lmasa – da, sizlab hurmatlanadi. Masalan: “adang uydami?” deb so`radi. Javob ham shunga yarasha: “Adang ishda emas”, “Adang ishdalar”. Farzandimizni oqil so`zlashga o`rgatmoqlik ayni shu holatdan boshlanadi. “ o`qituvching nima dedi?” emas, “Maktabda o`qituvching nima dedilar?” desak farzandlarimizni chiroyli tarbiya qilgan bo`lamiz. Chiroyli va oqil so`zlovchilarning ota – onasiga rahmat! Deb duo

qilinishi bejiz emas. Oqil soʻzlamakni bola koʻchada yoki maktabda emas, dastlab uyda oʻrganadi.

Hikoyatki, ikki shoir odil podshoh Noʻshiravonning ziyofatida hozir boʻladilar. Biri baland ovozda bayt oʻqidi:

Yaxshiligim qaytsin, desangiz,

Yaxshilik qil, yaxshi oʻy oʻyla!

Navbat ikkinchi shoirga kelganda bu baytni oʻqidi:

Yomonligim qaytmasin desang,

Yomon boʻlma, yomon oʻy qilma.

Bu baytlarni eshitgan Noʻshiravon xushhol boʻlib, birinchi baytni oʻqigan shoirga ming dirham, ikkinchi shoirga besh yuz dirham bermoqlikni amr qildi. Shunda vazirlardan biri ajablanib soʻradi:

-Ey odil amirim, ularning baytlari bir maʼnoda boʻlgani holda ne uchun har xil tuhfa berdingiz?

Noʻshiravon shunday javob qildi:

-Rost, maʼno bir. Biroq, soʻzda tafovot bor. Birinchisining soʻzi boshdan oyoq yaxshilik haqida boʻldi. Ikkinchisining esa kishiga faqat yomonlikni eslatdi. Boshqa zamonda va boshqa bir mamlakatda shunga oʻxshash voqea sodir boʻlgan ekan. Podshoh bir begunohni oʻldirmoqqa amr etdi. Ul bechora noumidlik kabi soʻzlar aytib, podshohga dashnom berdi, andoqkim debdurlar: “har kishikim jonidan kechar, koʻnglidan har na soʻz boʻlsa, oni qoʻrqmay izhor etar”. Podshoh bu odamning dashnomiga tushunmay, vazirlardan “ul na soʻz aytur?” deb soʻradi. Oqil vazir dediki:

-Ey podshohim, ul bechora ayturki: “har kishi qahru gʻazabin yutub, xalqning gunohin oʻtub, ehson qilsa, haq taolo uni doʻst tutar va jami gunohidan oʻtar”. Podshohga bu gap xush kelib, ayblanuvchining gunohidan oʻtdi, oʻlim hukmini bekor qildi. Alloh, yana bir gʻofil vazir bor edikim, oqli vazirga qarab dedi:

-Podshohning suhbatida sandin va mandin yolg'on so'z aytmoq munosib emasdur. Bu kishi podshohga dashnom qildi. Sen bu so'zlaringni yolg'on aytursan! Podshohga go'filning so'zi noxush kelib, undan yuz o'girib dedi:

-Sening bu rast so'zingdan uning yolg'on so'zi manga yaxshi ko'rinur, nedinkim, uning bu so'zi amniyat va maslahat binosiga istehkom berur va sening so'zing fasod va sharorat turg'uzmoqni taqozo qilur. Andoqkim, xiradmandlar aytibdurlar: "maslahatomuz yolg'on so'z fitnangiz rost so'zdin yaxshiroqdir".

Bu vaziyatda podshoh "har bir so'zni haqiqat deb so'zlaverish xato, ammo haq so'zni tinglash va unga amal qilish – farzdir" degan hikmatga amal qilgan edi.

Nutq madaniyati haqida gap ketar ekan ... , avvalo, til va nutq tushunchalarining mohiyatini farqlay olish lozim. Til va nutq bir – biri bilan chambarchas bog'liq, ammo ayni paytda bir biridan farqlanishi kerak bo'lgan hodisadir. Tilsiz nutqning, nutqsiz tilning mavjud bo'lishi mumkin emas. O'zbek adabiy tilining asoschisi ulug' Alisher Navoiy "Mahbub ul – qulub" asarida so'zning sharafli sifatlari haqida so'zlash asnosida til va nutq munosabati xususida quyidagi nazariy fikrni bayon qiladi: "Til muncha sharaf bila nutqning olati (quroli) dur va ham nutqdurki, agar nopisand zohir bo'lsa, tilning ofatidur".

Demakki, til nutq uchun qurol, bu quroldan foydalanib, nutq tuziladi. Nopisandlik, e'tiborsizlik qilinsa, nutq maqbul bo'lmaydi va bu tiling ofati bo'ladi. Til va nutqning bir – biri bilan bog'liqligi, biri ikkinchisiga hamisha ta'sir etishini til qonuniyatlarini teran bilgan bobomiz A. Navoiy sezgan. Yevropa tilshunosligida til va nutqni farqlash zaruriyatini asoslash, til va nutq tushunchalarining mohiyatini belgilash, bu ikki hodisaga xos xususiyatlarni ilmiy – nazariy jihatdan tadqiq etish, avvalo, mashhur shvetsar tilshunosi Ferdinand de Sossyur nomi bilan

bog`liqdir. Uningcha, “til tushunchasi nutqiy faoliyat tushunchasi bilan teng emas: til – nutqiy faoliyatning muayyan bir, albatta, eng muhim qismi”, til so`zlovchining faoliyati emas, u tayyor mahsulot, ijtimoiy hodisa, nutq esa individual faoliyat, so`zlovchining o`z fikrini ifodalash maqsadida til belgilaridan foydalanilgan holda rejalashtirilgan kombinatsiya mahsulidir. Til shu qadar mutlaqo o`ziga xos narsadirki, so`zlash qobiliyatini yo`qotgan odam ham tilni saqlaydi, ya`ni u eshitadigan til belgilarini bemalol tushunaveradi.

Uning ongida til yaxlitligicha turaveradi, shu tilda o`ylayveradi, faqat nutqni reallashtirish uchun nutq organlarining tegishli harakati yo`qolgan bo`ladi, xolos. F.Sossyurning quyidagi fikrlari ham alohida diqqatga sazovor: “ nutqiy faoliyatni o`rganish ikki qismga bo`linadi, ulardan birining, asosiysining o`rganish predmeti tildir, ya`ni mohiyatan ijtimoiy va individga bog`liq bo`lmagan narsadir, bu sof psixik fan, boshqasining, ikkinchi darajalisining o`rganish predmeti nutqiy faoliyatining individual tomonlari, ya`ni nutq (fanatsiya – tovush chiqarish bilan birga); bu fan psixofizikdir.

Shubxasizki ... bu ikki predmet (ob`yekt) bir – biri bilan chambarchas bog`liq va biri ikkinchisini taqozo etadi: til nutq tushunarli va shu asosda foydali bo`lishi uchun zarur; nutq o`z navbatida tilning shakllanishi uchun zarur; tarixan nutq fakti hamisha tildan oldindir. Agar tushunchaning so`zli (fonetik) obraz bilan assotsiyasi oldindan nutq fakti voqe bo`lmagan bo`lsa, bunday assotsiya qanday qilib mumkin bo`la oladi? Boshqa tomondan qaraganda, faqat boshalarni eshitib, biz o`z ona tilimizni o`rganamiz; sanoqsiz tajribalar natijasidagina til bizning ongimizda saqlanib qoladi. Nihoyat, tilning taraqqiyoti aynan nutq hodisalari bilan bog`liq; bizning til ko`nukmalarimiz boshqalarni eshitganda olingan taasurptlarga bog`liq holatda o`zgaradi. Shunday qilib, til va nutq o`rtasida bir – biriga bo`g`liqlik o`rtaga chiqadi : til bir paytning o`zida

nutqni ham quoli, ham mahsulidir. Ammo bularning barchasi til va nutqning mutlaqo farqli narsalar bo`lishiga moneylik qilmaydi”.

Ko`rinadiki, til tugalmas imkoniyat, nutq esa ana shu imkoniyatning real voqealanishidir. F.de Sossyur til – nutq dixotomiyasini shaxmat o`yini qoidalari misolida tushuntirib berishga harakat qilgan edi. Haqiqatdan ham, shaxmat taxtasidagi 64 ta katak teng holatda ikki xil rangda ikki guruhga 32 tadan ajratilib, qarama – qarshi qo`yiladi, har ikki guruhdagi guruhdagi donalar vazifa va qiymat jihatidan bir – biriga teng, donalarning o`ziga xos joylashish tartibi va yurish qoidalari bir xil. Harakatlari til, shaxmat kombinatsiyasi nutqdir.

Nutqiy muloqotning tarkibiy qismlarini tashqi omil va ichki omillarga ajratish mumkin. Muloqotda har bir belgi (xoh lisoniy bo`lsin, xoh nolisoniy bo`lsin) shakl va mazmunda assimetrik emas, semitrik bog`langan bo`ladi. Bitta shakl aniq holatda bitta mazmuni ifodalaydi va bir mazmun faqat bitta muloqot tizimidagina qo`llanilishi mumkin. Masalan:

Oyposhsha o`ng qo`lini ko`ksiga qo`yib, sal bukilib:

- Assalomu alaykum usta,-dedi

-Valeykum assalom Oyposhshaxon

CHap qo`lidagi cho`pni erga tashlagancha:

-O`g`lim Umarjonni ko`rmadizmi?

Muloqotning lisoniy birliklar: so`z, so`z birikmalari, undov va hokazolar muloqotning ichki omili sifatida lisoniy vositasi sanaladi. Bu vositalar bir necha paradigmalarni o`z ichiga oladi. Masalan:

"Salomlashish" lisoniy vositasi quyidagicha o`z paradigmasiga ega:

Assalomu alaykum va rahmatullohi va barakotuhu!

Assalomu alaykum!

Assalom!

Salom!

Hello!

Prevet!

Salyut!.....

"Salomga javob berish" lisoniy vositalar paradigmasi:

Salom!

Valeykum salom!

Valeykum!

Valekum assalom!

Valeykum assalom va rahmatullohi va barakotuhu

Salyut!

Salomlashish jarayonidagi nolisoniy omilning kinetik ko`rinishini bir necha ichki tizimchalarga bo`lish mumkin. CHunonchi, "qo`l holati va harakati" paradigmasi:

O`ng qo`lni ko`ksiga qiya qo`yib

Ikki qo`lni ustma-ust ko`ksiga qo`yish

Ikki qo`lni qorin ustiga qo`yish

O`ng qo`lining kaftini yoyib baland ko`tarish.....

"Bosh holati va harakati" paradigmasi:

Boshni oldinga, quyiga egilish

Boshni orqaga tashlab iyakni yuqoriga ko`tarish

Boshni irqash

Boshni quyiga tomon so`ng to`la ko`tarib harakatlantirish.....

"qomadning holati va harakati" paradigmasi:

qaddini sal bukish

qaddini g`oz tutish

qaddini batamom egish

Tiz cho`kish

Oyoqa yiqilish

Muloqot jarayonida ichki omillar (lisoniy, kinetik va ularning ichki ko`rinishlari) bir-biri bilan muvofiqlashishi kerak. Masalan: "Assalomu alaykum va rahmatullohi va barakotuhu" lisoniy vositasi quyidagi kinetik vositalar: ikki qo`lni ko`ksiga qo`yish, boshni quyi solish, qomatni sal egish kabilar bilan birga mumtozona kiyinishi (kavsh, tufli, mahsi, yoki etik kiygan, to`n, chakmon, yaktak yopingan, boshida milliy bosh kiyim yoki salla bo`lishi) va nutq tovushlarini burro talaffuz etilishi bilan hamkorlikda voqelanadi. Bu ichki omillarning muvofiqlashuvidir.

NMning tashqi omil asosida voqelanadigan tarkibiy qismlari ga quyidagilar kiritilishi mumkin: muloqotning maqsadi , nutqiy holat va nutqiy vaziyati, milliy(etnik) -madaniy (etik)lari kabi.

M a q s a d inson amaliy faoliyatining avvaldan fikran o`ylangan natijasidir. Hodisalar rivojining ob`ektiv qonunlarini va istiqbolini to`g`ri tushunish natijasida aniq maqsad yuzaga keladi. O`z oldiga aniq maqsadni qo`ya bilish esa faqat insonga xos. Muloqot jarayonining samarali bo`lishining birinchi sharti: maqsadni to`g`ri belgilab olishdir. Nuqt aktining ishtirokchilari - so`zlovchi (kommunikator, informant), tinglovchi (adresant) va ishtirokchilar bo`lishi mumkin ekan, ularning ma`lum bir aniq amaliy ahamiyatli umumiy maqsadi bo`ladi. CHunonchi, aloqa o`rnatish, fikr almashinish. Kontakt munosabatni ro`yobga chiqarishda so`zlovchida va tinglovchida aynan bir xil maqsad bo`lishi mumkin emas, ammo ularning maqsadlarida uyg`unlik bo`lishi kerak. Aks holda muloqot samarasiz bo`ladi yoki ta`sirsiz uziladi.

- Aytdim.
- Aytganing yo`q, dedim. Aytganing yo`q.
- Aytdim.
- Aytganing yo`q.
- Aytdim.
- Aytganing yo`?.
- Bor-e. qiz bolasan-da, bo`lmasam...

- Nima qilarding?
- O`zim bilardim.
- Bilmaysan!
- Bilaman!
- Bilmaysan!
- Bilaman.
- Bilmaysan dedim, bilmaysan!
- Bor-e...

Aloqa-aralashuv jarayonidan maqsad - nimadir xususidagi axborotni etkazish va odamlarning ruhiyati, axloqiga ta`sir etish. Masalan, CHunochi, N.D. Artyunova ning fikricha: "har qanday nutqiy hodisa ma`lum bir maqsad asosida namoyon bo`ladi. Odamlar nimadir haqidagi o`z muhokamalarini bayon qilish niyatida maslahat berish, va`da berish yoki taklif etish kabi tinglovchini biror bir narsaga ishontirish maqsadida so`zlaydilar"

Nutqiy muloqotda so`zlovchi va tinglovchining o`rni benihoya katta ekan, har ikkala tomon ham o`z-o`zicha mustaqil maqsadga ega bo`ladi. So`zlovchi har qanday Nutqiy muloqotda nimanidir aytishni maqsad qiladi, bu maqsad tinglovchi tasavvurida nima uchun va nima niyat bilan so`zlanilayotganini his etishdan iboratdir. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirra (so`zlovchi va tinglovchi)ning qanchalik o`zarâ mosligi, bir - birini to`ldirishga bog`liq. So`zlovchi ma`lum bir aborotni tinglovchiga quyidagicha etkazishni o`z oldiga maqsad qilib qo`yishi mumkin:

1. Biror fakt haqida axborot etkazish
2. Tinglovchiga qaratib iltifot (konotiv) ko`rsatish
3. Boshkaruv (regulyativ)
4. Xitob (apelyativ)
5. Ta`sir etish
6. hayajon
7. Maslahat,undash

8. Tabriklash va h.

Tinglovchining maqsadi esa tinglashdir. Mashhur amerikalik notiq psixolog Deyl Karnegi "Yaxshi suhbatdosh-yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir", degan aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo`lishini nazarda tutgan edi.

Tinglash xam kommunikantlar maqsadida uyg`unlik mavjud bo`lgan taqdirdagina amalga oshiriladi. Suhbatdoshlar orasida maksad uyg`unligi bo`lmasa, yo, xalk iborasi bilan aytganda, suhbat kovushmaydi yoki uziladi, ya`ni muloqot jarayoni maqsadga erishmaydi. Prof. S.Mo`minov shu xakda fikr yuritib choyxonada uta ta`sirchanlik va kuchli hissiyot bilan Yusufjon qiziq uchun mutlaqo maqbul bulmagan mavzuda - qudalaridan shikoyat qilib "dardi ni to`kayotgan" kishi suhbatiga chek kuytsh uchun turib itga salom berganligi lavxasin keltirgan .

Kommunikantlar maqsadida uygunlik bo`lmasa, - juda kup xollarda adresant maqsadini adresat kabul kilmasa - yukorida kurganimizdek, muloqot buziladi, maqsadiga erishmaydi da uziladi. Kommunikantlarning madaniy saviyasi, ijtimoiy-ma`naviy dunyosi va yana juda kup omillarni xisobga olgan xolda muloqot turli kurinishlarda uziladi. CHunonchi, S.Mo`minov tasvirlagan xolatda adresat adresant maqsadidan tamoman boshka mavzuga yoki faoliyatga utadi ("dard"ini to`kayotgan kishi iztiroblariga mutlaqo befarkligini namoyish kilish uchun tamoman boshka ishga - suhbatdoshini kuyib, urnidan turib itga salom beradi).

SHuni alohida aytish mumkinki, NM tushunchasi mohiyatan so`zlovchining maqsadi bilan bog`liq ekan, so`zlovchi o`z faoliyatini tinglovchiga moslashtira bilishi, tinglovchi esa so`zlovchi saviyasini bilishi, tinglashga tayyor bo`lishi kerak. SHundagina muloqot maqsadli va uzluksiz bo`ladi.

Nutqiy vaziyat ko`chada, telefonda, uyda, avtobus (mashinada) va yozma nutqda (xat) kabi ko`rinishlarga ajratiladi.

Muloqoti o`ziga xos qonun-qoidalarga - me`yorlarga ega va biz bir holatdan ikkinchi holatga o`tar ekanmiz, onglimi-ongsizmi shu holat uchun me`yor bo`lgan muloqot normalariga bo`ysunamiz, o`zimizni har daf`a yangi bo`lgan holatimizga moslashtiramiz, o`zgarib turamiz. Nutqiy vaziyatga moslashamiz.

Nutqning xarakteri so`zlovchi va tinglovchining madaniy saviyasi bilan ham uzviy bog`liq. SHuning uchun muloqot shakl va tarzini belgilashda, tasnif etishda kommunikantlar saviyasi muhim asoslardan bo`lib xizmat qila oladi.

Bu muloqot shakli, mazmuni va vositalarini tanlashda (resp. muloqotni tasniflashda) nafaqat kommunikantlarning saviyasi, balki ularning jnnsi - ayol yoki erkak jinsiga mansubligi ham ahamiyatlidir.

NMning tashqi tarkibiy qismlariga milliy (etnik) va madaniy (etik)lar o`z ta`sirini ko`rsatmay qo`ymaydi. CHunki, kishi muloqot jarayonida bevosita o`zi foydalanayotgan til qoidalarga, nutqning aniqligi, sofligi, mantiqiyliqi, ifodaliligi, ta`sirchanligiga e`tiborni qaratadi. Bu uning yuqori madaniy saviyadagi kishi ekanligini namoyon etsa, o`zi yashab turgan jamiyat va atrof-muhit, sharoit, urf-odat ta`sirida shakllangan va qabul qilingan nutqqa, kiyinishga rioya qilsa uning milliyliqi ko`zga tashlanadi.

NMning qanaqaligida kommunikantning barcha xususiyatlari, ko`rib o`tganimizdek, relevantdir va NM u yoki bu xususiyatini belgilovchi omildir. SHuning uchun har bir badiiy asar muallifining oldida personajni NMga kiritishdan oldin uning NM uchun ahamiyat kashf etadigan tomonlarini ochib berish, ular bilan kitobxonni tanishtirish masalasi turadi. SHunda adib imkoniyat, zarurat va badiiy maqsadlarda, asosan, ikki usuldan birini tanlaydi:

- 1) uzilmagan, yaxlit tavsif usulida - personaj, uning tabiatining NM uchun relevant qirralarini yaxlitlikda (bir-biridan uzilmagan holda) badiiy qahramonni kitobxon bilan tanishtirish bosqichida ocha berish;

2) uzilgan, qism-qism tavsif usulida - personaj, uning tabiatining NM uchun relevant qirralarini bosqichma-bosqich - muayyan NM uchun zarur va ahamiyatli bo'lgan tomonlarini ochib berish.

SHubhasizki, har ikkala usulning o'ziga xos qulaylik va noqulayliklari, samarali (resp. ta'sirchan) qo'llanilish o'rinlari bor. Real borliqda muloqotning

a) to'liq-simmetrik;

b) to'liq- asimmetrik;

v) noto'liq- simmetrik;

g) noto'liq- asimmetrik

kabi ko'rinishlari badiiy tasvirda ikki usulda berilish mumkinligini nazarda tutsak, badiiy tasvirda NMning quyidagicha tasvir usullarini ajratish mumkin:

1) to'liq-simmetrik-uzilmagan;

2) to'liq-simmetrik-uzilgan;

3) to'liq-asimmetrik-uzilgan;

4) to'liq-asimmetrik-uzilmagan;

5) noto'liq-simmetrik-uzilmagan;

6) noto'liq-simmetrik-uzilgan;

7) noto'liq-asimmetrik-uzilgan;

8) noto'liq-asimmetrik-uzilmagan

Ammo badiiy kinofil'da NMning quyidagicha tasvir usullari simmetrik va asimmetrik ko'rinishlardà bo'ladi, xolos. Masalan, "Abdullujon" kinofil'midagi quyidagi parchaga e'tiborni qarataylik:

-hi,hi,hi.Zdraste,-boshini old tomonga sal qimirlatib, o'ng qo'lini ko'ksiga qo'yguncha Bozorboy ikki bukilib:-Assalomu aleykum... aziz... meh-mon... bizni qishlog'imizga xush kepsiz!.- dedi Bozorboy, boshi kal, ko'zi, yuzi qizargan kishiga qarab so'zini davom etdi: - haligi...-dedi Bozorboy mamnunlik bilan - Kalxozdayam, idoradayam sizni kutishyapti. Mehmon... kamtarlik bilan- Bizni uyimizga ham mehmon bo'lasiz-a?

-Yarim soatdan buyon ochiq havoda dam olishga qo'yishmaydi, nastranamni buzdilaring.Nima balo tanimadingmi? Yo'ldoshman-u-dedi haligi boshi kal, ko'zi, yuzi qizargan qishloqdoshi.

Yuqoridagi parchadan ko'rinib turibdiki, Bozorboy qishloqning sodda, ishonuvchan odamlaridan. U o'zga sayyoralik qishlog'imizga kelibdi degan xayol bilan unga o'zbekona ikki bukilib salom beradi. Bu muloqotning simmetrik ko'rinishiga misol bo'la oladi.

-Tak,kak eto skazat'....,- dedi Sardor boshini ?ashib

- O'zbekcha gapiravo`ring,man o'zbekcha bilaman,-dedi Diana jilmayib

- Rostanmi?! - bir tomonda hayron qolgan Sardor, ich-ichidan suyinib ketdi.CHunki u Dianani qiyla bilan (garov o`ynagan) o`ziga xotin qilish rejasida edi.

Bu muloqotdan ko'rinib turibdiki, nasl -nasabi rus bo'lgan Diana o'zbek tilida qiynalmay gapira olyapti. Bu esa muloqotning assimetrik ko'rinishiga misol bo'la oladi.

Yoki:

To'y kunidan keyingi kun "Kelin salom" marosimi o'tkaziladi. Bu urf fa?at o'zbek millatiga xos. "Super kelincha" kinofil'mida rus millatiga mansub, umuman o'zbeklarning urf-odatidan bexabar Diana shunday chiroyli, iboli "kelin salom " qiladiki, hatto labini burib: "Ygilib salom bera olarmikan?!" deb turgan qo'shnilar labini tishlab qoladi.qaynonasi bu ta`zimni ko`rib hayron qolib istar-istamas iste`zoli ohangda kelinchakka yaqin kelib uzun tirnoqlarini ko`rib shunday deydi:

- Tirnoqlaringni yashir,ilon! qaerdan o`rgangansan?

Diana beg`araz va quvnoq ohangda dedi: -Internet-d-a-an.

Yoki:

- Devushka otkogo pryachemsya?- dedi savdo ?ilib turgan kartoshka sotuvchè

- Svyakrov'!

Sotuvchi boshini ko`tarib Diana qaragan tomonga qaradi va unga qayta hayrat bilan ko`zchni katta-katta qilib: -Kto-kto?

- Svyakrov! qanana-a-a!-dedi

Sotuvchining bunday holatga tushishiga sabab Diana o`ta zamonaviy kiyingan, tironoqlari uzun qilib o`stirilgan rus millatiga mansub.qaynonasi esa o`zbekona milliy kiyingan, o`ta jahldor hammani pisand qilmaydigan o`zbek ayollaridan edi.

Yuqorida berilgan bayondan ko`rinib turibdiki, nutqiy muloqotning qanday kechishi, unda lisoniy vositalarning qay birinining qo`llanilishi, bu vositalar muloqot ishtirokchilariga handak ta`sir etishi muloqotning tarkibiy qismlari bo`lmish - ichki va tashqi omillarining o`zaro hamkorligi Bilan belgilanadi. Bunda eng kichik bir xususiyat ham (chunonchi, ko`rinishi boshqa millat vakili bo`lgan holda boshqa millat tilida so`zlashishi, yoki bir xil kiyinishda bo`lib, boshqa ijtimoiy tabaqa vakili nutqiy birliklarini qo`llashi v.h.) juda kuchli - ba`zan qao qiluvchi ta`sir kuchiga ega. SHuning uchun nutqiy muloqot ta`sirchanligi ta`minlash uchun "ikkinchi darajali" narsa bo`lishi mumkin emas - muloqot tarkibiy qismlarining garmoniyasi, simmetriyasigina uning ta`sirchanligi va mulammalligini ta`minlaydi.

Nutqiy muloqotning yozma badiiy va badiiy audiovideo tasviri qiyosi asosida shuni ayta olamizki , badiiy audiovideo tasviri hamisha yozma badiiy tasvirdan ko`ra boyroq va unda asosasn muloqot tarkibiy qismlari simmetriya voqelanadi. Asimmetril holatlar ham maxsus vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.. Bu erda shuni afsus Bilan ta`kidlash lozimki, nutqiy muloqotni yaxlit tizim sifatida tasvirlovchi badiiy audiovideo tasvirlar tilshunoslik fanida tadqiq manbai deyarli bo`lmagan. SHubhasizki, bu o`tgan davr tilshunosligining tilning voqelanishini faoliyat omilidan ajratib tavsiflash an`yoanai bilan uzviy bog`liqdir. Umid qilish mumkinki, pragmatik tilshunoslikning - tilning voqelanishinini jarayon, faoliyat sifatida o`rganauvchi fanning - tez

rivojlaniishi Bilan bolk ravishda mloqotning badiiy audiovideo tasviriga murojaat ham oshib boradi.

Bob bo'yicha xulosa

Ma'lumki, til taraqqiyotidagi qononiyatlar, uning ichki til tizimi yaxlit holatda o'rganilmas ekan, ijtimoiy lingvistikaning barcha muammolarini hal qilib bo'lmaydi. Holbuki, hozirgi ijtimoiy lingvistika sinxron holatlar bilan birga, diaxronik prinsplarni ham hayotga tadbiiq etib kelmoqda, bu esa tilning funksional (vazifaviy) ko'rinishlarini tarixxiy taeqqiyotlar asosida o'rganishga asos bo'lish mumkin.

Nutq madaniyati tilshunoslik yo'nalishidagi fan bo'lib, ijtimoiy munosabatlarda tilning tutgan o'rnini til taraqqiyotini va tilning funksional jihatlarni hamda jamiyat uchun xizmat qilishini o'rganadi.

Darhaqiqat, nutq madaniyati shakllanish, qurilish, taraqqiyot nuqtai nazaridan tilning ijtimoiy shartlanganligi, "tilning jamiyatga, jamiyatning tilga ta'sirini" o'rganuvchi fan sifatida qaralmog'i lozim. Vaholangki, ijtimoiy lingvistika hayot qonuniyatlarini til faktlari asosida o'rganar ekan, uning o'ziga xos xususiyatlarini anglamoq va tushunib yetmoq lozim bo'ladi. Avvalambor, nutq madaniyati bir necha termin ostida nomlanishi bunga yaqqol misoldir.

Nutq madaniyati tarixi bilan bog'liq muammolarni hal etishda quyidagi asosiy omillar mavjud:

- Tilning jamiyatga, jamiyatning tilga aloqadorligi nutq madaniyati tayanch nuqtasi ekanligi;
- milliy tillarni rivojlantirish va taraqqiy etishda nutq madaniyatining muhim omillari mavjudligi;
- milliy va xalq tillarini rivojlantirish, shuningdek, ikki tillilik bu boradagi asosiy omillar sifatida ekanligi;
- millat, millatlaro tillarni rivojlantirishda nutq madaniyati markaziy yadro sifatida idrok etish kabilar mazkur masalani to'laqonli o'rganish uchun asos bo'lishi mumkin. Nutq madaniyati muammolarining yechimiga zamon talablari asosida, davrga hamohang munosabatda bo'lish, fundamental

tadqiqotlar yo`nalishi muayyan, maqsadli va samarador masalalar bilan shug`ullanishi taraqqiyotni belgilab beradi.

Ikkinchi bob. Talabalar nutqining qurilish strukturasi haqida.

2.1. Talabalar nutqining leksik strukturasi.

Talabalar nutq madaniyati tushunchasini ilmiy jihatdan to`g`ri tasavvur etish nutq madaniyati deb yuritilayotgan sohaning tilshunoslik fani, shuningdek, boshqa fanlar doirasida tutgan o`rnini belgilash bilan bog`liqdir. Ushbu masala hozirda nutq madaniyati muammolarini dolzarb bo`lib turgan o`zbek tilshunosligi uchun ham muhim nazariy hamda amaliy ahamiyatga egadir.

Tilshunos R.A.Budagov yozuvchi T.N.Timofuvning “Правильно ли мы говорим?” nom`i risolasida yozgan taqrizida nutq madaniyatini “filologik fan” deb ataydi. Tilshunos V.P.Petushkov o`sha kitob haqida gap yuritar ekan, nutq madaniyatini bir qator fanlardan oziqlanib ish ko`ruvchi “yangi fan” deya ta`riflaydi. V.P.Petushkov nutq madaniyati haqida yozuvchilar tomonidan aytilgan mulohazalariga suyanib shunday yozadi: “Nutq madaniyati fanning ilmiy tarmog`i sifatida tilshunoslik bilan bir qatorda estetika, odobshunoslik, ijtimoiyot fanlari bilan ham hisoblashmog`i kerak. Boshqa fanlar bilan yaqindan aloqada bo`lgandagina nutq madaniyati o`zining mukammal ta`limotini yarata oladi va jamiyat uchun kutilgan salmoqli ta`sirini o`tkaza oladi”.

Bir qator olimlarning fikricha, nutq madaniyati tilshunoslikning maxsus bo`limidir. V.G.Kostomarov, B.S.Shvartskopflar ruslar tilidagi nutq madaniyatiga oid adabiyotlarga tahlil berar ekan: “ Nutq madaniyati tilshunoslikning maxsus bo`limi deb asoslash adabiy tilning boy uslubiy imkoniyatlari va ularning qo`llanish qonuniyatlarini o`rganishni talab etishni” qayd qiladilar.

Nutq madaniyati (til madaniyati) ning alohida soha sifatida tan olishini bu sohani oliy maktablarda mustaqil kurs sifatida o`qitilishi lozimligi fikrini tug`dirdi. Ba`zi olimlar ushbu fikrni keyinchalik qo`llab

chiqdilar. Nutq madaniyatini oliy maktablarda alohida fan sifatida o`qitish lozimligi g`oyasi, ularning fikricha, “diqqat bilan o`qitishga sazovor” dir. Keyingi fikr egalari ta`riflashicha, oliy maktabda o`qitiladigan bunday soha normative kurs bo`lmog`I kerak. Ular bunday kursning vazifalariga ham to`xtadilar. Ammo keltirilgan fikr egalari bitta ob`yektiv haqiqatni tan olishga majbur bo`ladilar, ya`ni nutq madaniyati kursi hali o`z maqsadi va mazmunini ifodalovchi yetuk darslik yoki qo`llanmaga, shuningdek, o`quv programmasiga ega emas.

Nutq madaniyatini “mustaqil fan” deb atash va uni maxsus o`qitish lozimligi g`oyasi o`zbek tilshunosligida ham paydo bo`ldi. Chunonchi, professor G`.A.Abdurahmonov shunday yozadi:

“Nutq madaniyati masalalari oliy maktablarda mustaqil fan sifatida o`qitils yaxshi bo`lardi. Faqat oliy maktablardagina emas, o`rta maktablarning yuqori sinflarida ham nutq madaniyati normalari maxsus o`qitilishi zarur. Bundan bir necha yil oldin yuqori sinflarda ona tili darsida nutq madaniyati normalari o`qitilar edi. Keyingi yillarda kimning aybi bilandir bu fan olib tashlangan”.

O`zbek tili nutq madaniyati masalalariga bag`ishlab 1969 – yili chiqarilgan I Respublika ilmiy konferensiyasining “Qarori” da ushbu taklifni o`qiyimiz: “O`zbekiston Oliy va o`rta maxsus ta`lim ministrigidan pedagogika institutlari stilistika va nutq madaniyati maxsus fan sifatida o`qitishni planlashtirish so`ralsin”.

Nutq madaniyati sohasiga doir darslik va qo`llanmalar yaratish sohasiga ham ba`zi harakatlar bo`lgan. Ayrim mutaxasislarning fikricha, Ye.A.Baxnutovanning “ Nutq madaniyati” nomli kitobchasi bu fan bo`yicha (rus tili materiallari asosida) fakul`tativ kurs yaratish yo`lidagi muvafaqqiyatli ishdir. Ushbu asarda nutq amaliy masalalari yaratilgan bo`lib, unda talaffuz, lug`aviy normalar, tilning ifodali va frazeologik vositalariga doir mashqlar berilgan. Asar o`z imkoniyati nuqtai nazardan

umuman ijobiy baholansa – da, bizningcha, unda nutq madaniyati sohasining maqsad va vazifasi, nazariy, asosiy hamda original fan sifatidagi xususiyatlari deyarli ko`rsatib berilgan emas. Mana shu tarzda yozilayotgan adabiyotlar anchaginadir. Ularda nutq madaniyati masalasiga oid ba`zi fikrlar o`rtaga qo`yilgan bo`lsa – da, tilshunos M.N.Kojina to`g`ri ta`kidlaganidek, bunday asarlarni hali nutq madaniyati bo`yicha ilmiy darslik yoki qo`llanma deb atash qiyin.

Nutq madaniyati alohida fan sifatida baholashga bag`ishlangan fikrlarni o`rganib shunday xulosaga kelish mumkinki, nutq madaniyati (til madaniyati) ni fan, yoki maxsus mustaqil soha sifatida deb ta`riflash, aslida ob`yektiv haqiqatga ko`ra, ancha ilgarilab ketgan. Ammo bu fanning asosiy vazifasi, u o`rganuvchi ilmiy masalalarni belgilash, uning nazariy hamda lisoniy – moddiy asosini ishlab chiqish singari masalalar orqada qolib ketgan. Ma`lumki, har qanday fan o`zining aniq nazariy – metodologik tayanchi, darslik va qo`llanmalari bilan tirikdir. Nutq madaniyati sohasi esa hali tilga olingan nazariy hamda amaliy tayanchga chimakam ma`noga ega emas. Shu sababli ham bo`lsa kerak, oldin ham ta`kidlaganimizdek, nutq madaniyatining tadqiqot ob`yekti, uning nazariy metodi, maqsad va vazifalari haqida hozirgi zamon tilshunosligida turli – tuman mulohazalar, biri – ikkinchisini inkor etuvchi fikrlar bildirilmoqda. Mana shunday sabablarga ko`ra, ba`zi ilmiy – nazariy adabiyotlarda nutq madaniyati yoki til madaniyati tilshunoslik fanining endigina yaratiladigan, asoslanadigan sohasi deb baholanmoqda.

Tilshunos B.N.Golovining “ Nutq madaniyatini nazariy yo`nalishda o`rganish, aslini aytganda, endigina boshlanmoqda”, deb yozganiga ham ancha vaqt bo`ldi. Ammo shunga qaramasdan o`sha muallif nutq madaniyatini o`rganuvchi sohaning ko`pgina tomonlari haligacha noaniq, madaniy nutqning asosiy belgilarini ko`rsatuvchi darslik va qo`llanmalar endigina yaratilmoqda, ammo bunday yangi tip asarlarni bunyod etishga

doir izlanishlarni hozirdanoq boshlash lozim degan fikrlari hali ham o`z kuchida qolib kelmoqda. Nutq madaniyati deb yuritilayotgan tushunchani qanday nomlash ham munozaralidir.

Mavjud lingvistik adabiyotlarda notqlik, notiq, notqlik san`ati, voiz, voizlik, voizlik san`ati kabi tushuncha va atamalarga duch kelamiz. Xalq orasida; so`zga chechan; so`zamollik; so`zni boplaydi; gapni do`ndiradi; gapga usta singari iboralar bor. Keltirilgan so`z va iboralarning barchasi inson nutqining, inson nutqining kamolotini darajasini, umumiy, jon nutqidan farqlanadigan nutq namunalarini ifoda qiladi. Hamma ham agar u nutqiy nuqson bilan tug`ulmasa (soqov, dudmal bo`lmasa) gapiradi. Ammo hamma ham bir xilda gapga chechan, o`ta chiroyli gapiruvchi bo`lavermaydi. Nutqiy chechanlik – notqlik alohida qobiliyatidir. Klassik ma`nodagi notqlik – bu alohida favqulodda nutqiy san`atdir. Chinakam notqlar notqlik mahoratiga (san`atiga) tabiiy qobiliyat bilan bir qatorda o`z tili, nutqi ustida tinimsiz ishlash natijasida erishadilar”.

O`zbek xalqi dunyoda o`z ma`naviyati va madaniyati mavjud bo`lgan turkey xalqlarning biri sifatida tildan foydalanishda ham qadimiy an`analari, odat va ko`nikmalariga ega. Zero, ana shu a`nana va odatlar har bir xalqning o`zligini ko`rsata oladigan belgilar sanaladi. Ona tilimizning bu ijtimoiy jihatlari ham e`tiborini tortgan. Ammo keying o`n yillikda ush bu mavzuga bag`ishlangan ikkita yirik tadqiqot – S.Mo`minov va SH. Iskandarovlarning monograf ishlari maydonga keldiki, biz mazkur mavzuni yoritishda bevosita ana shu kuzatishlar natijalariga asoslanamiz.

Ma`lumki, inson faoliyatini uning jamiyat mahsuli sifatida mavjudligi sanalib, ana shu faoliyat jarayonida u ma`lum harakatlarni amalga oshiradi hamda jamiyat azolari R.Qo`ng`urov, E.Begmatov, Yo.Tojiyev “ Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari “ Toshkent “ O`qituvchi “ 1992.139- bet. Bilan til muomalasida: muloqotda, fikr almashishda bo`ladi. Ammo bu muomala tildan foydalanuvchilarning madanitati daryosiga ko`tarilgunga qadar uzoq davrni

bosib o'tishi tabiiy. O'zbek nutqi ham bugungi taraqqiyot bosqichiga yetgunga qadar ana shunday vaqt sinovidan o'tgan.

O'zbek nutqiy odati tadqiqotchisi SH.Iskandarova uning vazifa doirasini belgilab, suhbatdoshlar o'rtasida aloqa o'rnatish, ularning bir – birlariga iltifot ko'rsatishga harakat qilishi, suhbatni boshqarib bo'rish, murojaat qilish, xitob, ta'sir etish singari ommillarni qayd qiladi.

Xullas, talabalar nutqining leksik strukturasi ularning muloqot jarayonida yuzaga keladi, muloqot jarayoni g'oyatda murakkab bo'lib, suhbatdoshga vaziyatdan kelib chiqib munosabatda bo'lish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Talabalar nutqi madaniyati leksikasi, muloqot madaniyati, so'zlashish jarayoni bilan ham boshqa nutq vakillaridan farqlanadi.

Yoshlar nutqidagi lug'aviy birliklarning ishlatilish doirasi jihatidan 2 guruhga ajratish mumkin:

1. Yoshlar nutqidagi lug'aviy birliklarning ishlatilish doirasi chegaralanmagan qatlam.
2. Yoshlar nutqidagi lug'aviy birliklarning ishlatilish doirasi chegaralangan qatlam.

Yoshlar nutqidagi lug'aviy birliklarning ishlatilish doirasi chegaralanmagan qatlam deganda, barcha (turli yoshdagi kishilar) uchun tushunarli va umumiy bo'lgan lug'aviy birliklar tushuniladi. Bu qatlamdagi lug'aviy birliklar (yashash joyi, kasbi, madaniy saviyasi, jinsi va boshqa belgilaridan qat'iy nazar) o'zbekchà gapiradigan har bir kishining nutqida ishlatiladi va ular uchun tushunarli bo'ladi. O'z-o'zidan, bunday lug'aviy birliklar kundalik turmushda zarur narsa, belgi kabilarni nomlaydi, tuyg'ularni ifodalaydi.

So'z turkumlari nuqtai nazaridan yondashsak, yoshlar nutqidagi lug'aviy birliklarni ishlatilish doirasè chegaralanmagan qatlamga butunicha (ba'zi juz'iy istisnolar bilan) yordamchilarni kiritish mumkin. Chunki, birinchidan, bunday birliklar o'zi ko'p emas; nutqda gar gal shu oz miqdordagi birliklarga

murojaat qilamiz. Ikkinchidan, yordamchilar grammatik vosita hisoblanadi: bularda leksik tomondan ko`ra grammatik tomon ustun turadi. Masalan:

- O`rtoq Ýshboev,-dedi Akobir,-bu kishi mening hamqishlog`im bo`ladi. Ko`pdan beri arxeolog bo`laman, deb orzu qilib yurganini bilaman. Rayonimizga borgan arxeologiya ekspeditsiyasida er qozuvchi bo`liá ishlagan. Lekin doktordan ikki enlik spravkani kechikib keltirgani uchun hujjatlarni qaytib beribsiz .

Yoki:

-Kechirasiz!

-Xo`sh?!

-Ismiz?

-Jorj

-Mening bir do`stim bo`lardi ismi Jo`ra?ul sizni o`shanga o`xshatib...

- qurbonali?!

- Jo`raqul o`zingmisan?

-ha,menman.

-Juda o`zgaribsan, tanish qiyin

-Seni ham srazi tanish qiyin

Qurbonalining qo`lidagi soatga qarab, xuddi vaqti ziq odamlardek o`zini tutib:

-Xo`p, hali... mayli bir oz vaqtim bor yur bir shahar aylantiray .

Undovlar ham ishlatilish doirasi jihatdan yordamchilar qatorida baholanadi. Masalan:

-Ý,e -e shu erda ekansiz,-dedi SHodiboy

-Keling,-dedi ?oshimbey

-Ý, bir shikoyatim bor

- SHikoyat?!

Yoki:

-qalay, Kamola. Yaxshi o`tiribsanmi?-dedi Zilola xona eshigidan kiraverib.

--Voy, Zilo-o-ol yanami? -dedi Kamola ?izil atirgulga ishora ?ilib.Zilola qo`lidagi atirgulni stol ustiga pisand ?ilmay otib yubordi.

- Nega tashlaysan? qara, qanday chiroyli!-deb Kamola atirgulni olib guldonga solib qo`ydi.

Yoki:

-Voy, kim ekan-u?- dedi ajablanib qizg`angancha Umida

-Ketvorgan qiz ekanmi?- Umidaning hamkasbdosh dugonalaridan biri

-qiyshanglamay o`lsin,him.-dedi Umida ko`zini suzib

Mustaqil so`z turkumlaridan son va olmoshlarning deyarli barchasi ishlatilish doirasi chegaralanmagan bo`ladi. Masalan:

-Demak, bugun kech?urun boramiz-a? - dedi inti?lik bilan Umarxon

Yoki:

Zilola eshik tut?ichiga yana ildirilgan ?izil atirgul va xatni olib xonaga kirdi. Xatni olib o`?iy boshlaäè

- Zilola, iltimos meni kechiring. Kecha sizga ayta olmadi. To`g`rirog`i aytishga so`z topolmadim. CHunki bó yuragimdagi katta sir edi. Bu sir men uchun shunchalik ardo?liki buni men ?atto o`zimdand ham yashirishga urinaman. Siz menga yo?asiz! Bir yildan buyon or?angizdan soyadek ergashib yuraman.Buni siz bilmaysiz. Iltimos, bugun darsdan keyin soat ikkida xiyobonda uchrashaylik. Sizga àèòàäèãäí ääìèá bor. Iltimos keling. Javo?ir.

Yoshlar nut?idagi lu?aviy birliklarning ishlatilish doirasi chegaralangan ?atlamni bir necha guru?larga bo`lib o`rganish mumkin:

1. Yoshlar nut?idagi dialektal lu?aviy birliklar.
2. Yoshlar nut?idagi jargonizm, argonizm, vul'garizm kabi lu?aviy birliklar.
3. Yoshlar nut?idagi lu?aviy olinma so`zlar.

Bundan tash?ari, yoshlar nut?ida ellipsis ?odisasi ?am uchraydi.

Ma`lumki, til tarkibida ?o`llaniladigan, unda ma`lum bir vazifani bajaradigan alo?ida biror dialekt va ma?alliy shevalarning fonetik, morfologik,

leksik va sintaktik xususiyatlarni o`zida aks ettiruvchi so`z va so`z birikmalari dialektizmlardir.

Turkiy tillar ichida dialektal ji`atdan keskin farqlanadigan o`zbek tilining shevalari fonetik, morfologik belgilariga ko`ra ma`lum darajada o`rganilgan va ularning leksik tarkibini o`rganishda ham bir muncha muvaffaqiyatlar o`lga kiritilgan. Masalan, ko`pchilik shevalar leksikasida adabiy tildagi so`zlardan farq qiluvchi xarakterli leksik birliklar to`planib, ular ha`ida ko`pgina ma`olalar yozilgan: kichik-kichik e`latlar tuzilib, dissertatsiyalarga ilova qilingan. Natijada "Xorazm shevalar lu`ati"(1961), "O`zbek shevalari leksikasi" (1966), "O`zbek xalq shevalar lu`ati" (1971) yuzaga keldi. Bularning hammasi to`la lingvistik-dialektologik nu`tai nazardan amalga oshirilgan ishlardir. Lekin milliy adabiy til lugat tarkibining katta bir qatlamini tashkil etuvchi dialektal leksikaning badiiy nut`da bajaradigan turli xil emotsional, uslubiy, estetik vazifalarini o`rgatishga endigina kirishildi. Dastlabki sinov sifatida ma`olalar yozildi va ayrim ilmiy ishlarning o`rganish manbai qilib olindi. O`zbek tili dialektlarini o`rganishda o`lga kiritilgan materiallar bu til dialektlarining o`ziga xos qanday xususiyatlariga ega ekanligini ko`rsatdi. O`zida dialektal (xo` fonetik, xo` leksik) belgini ifoda etuvchi so`zlarni o`zbek tilidagi turlicha janrlarda yaratilgan badiiy asarlardan istagancha topish mumkin. Ularning bir qismi adabiy tilda o`z ekvivalentiga ega bo`lsa, ikkinchi bir qismi akademik SH.SHoabdura`monov ta`kidlaganidek, adabiy tilda yoki boshqa shevalarda paralleli yo`q .

Yozuvchi ma`lum bir q`ududda yashovchi xalq qayotini ha`qoniy tasvirlash maqsadida shunday so`zlarning qar ikkala ko`rinishlaridan o`rinli foydalaniladi. Albatta, bu o`rinda yozuvchi ha`li, sababi o`zbek adabiy tilida ayrim q`ududlarga xos bo`lgan so`zlar uchramasligi, shevalarda esa mavjud bo`lishè mumkin. U yaratgan asar mavzusi va qoyasi bilan voqealar kechadigan q`udud bilan bo`li? q`olda dialektizmlar shu asar tilida ishlatilaveriladi:

Obinabot- yoʻda pishiriladigan suyuʻ qolva (Buxoro), sofi- palovning buʻda pishirilgan turi (Buxoro)

Darʻakiʻat, yuʻorida aytilganidek, oʻzbek shevalari adabiy tildagi soʻz bilan parallel ravishda oʻllanilaveradi. ʻozirgi davrda bunday leksik parallellardan biri adabiy meʻyor boʻlib bormoʻda. Masalan: domod\\kuyov, yostiʻ\\bolish, kisa\\ choʻntak kabi.

Dilektizmlar badiiy tasvirda oʻziga xos uslubiy aʻamiyatga ega. Ayniʻsa, dialektizmni yoshlar nutʻè misolida oʻrganish, yanada aniʻlikka erishish uchun yoshlar nutʻining ikki koʻrinishi soʻzlashuv nutʻi va oʻzaki nutʻ asosida oʻrganish orʻali muʻim ilmiy xulosalarga kelish mumkin.

Soʻzlashuv nutʻi kundalik ʻayotda ikki va undan ortiʻ shaxsning oʻzaro muloʻotda yoʻl-yoʻlakay, bir daʻikada, baʻzan suʻbat tariʻasida roʻyobga chiʻuvchi vaziyat bob, norasmiy diologik nutʻdir. Soʻzlashuv nutʻi keng ʻamrovli boʻlib, adabiy til doirasida, maʻalliy shevalarda, kundalik turmush nutʻiga ʻam teng xizmat ʻiladi.

Soʻzlashuv nutʻining oʻzaki shakli soʻzlovchi bilan tinglovchi muloʻotida kommunikatsion vazifa bajaradi. CHunonchi, Zulfiʻor Musoʻov

"Bomba" kinofil'midagi personajlarining nutʻiga eʻtiborni ʻaratsak:

- ʻanaʻa odamsan oʻzi, sen ʻam biron nima desang-chiʻ

- Men nima deyman, ʻamma gapni oʻzing etvossan-ku! - eʻtiroz bildirdi Mirazim .

Yoki:

- Yusuf! Said! ʻochduk, man anavuni oʻldirib ʻoʻydim shakilli. Man nima devobman sanlaga! Anavuni oʻldirib ʻoʻydim! ʻochduk!

Yoki:

-Nima devottiʻ

-Oʻzing bilan nimang bor devotti, ʻarip

Yoshlar soʻzlashuv nutʻining yozma shakli niʻoyatda chegaralangan boʻlib, faʻat xat janridagina koʻzga tashlanadi. M a s a l a n:

SHu payt orʻadan kimdir Zilolani engil turtdi va elkasi ustidan turt buklangan ʻoʻozcha uzatdi. Zilola uni ochdi-yu, ʻayron boʻlib ʻoldi: oʻsha siyoʻ bilan, oʻshanday maydalab:

"Zilolaxon! Mumkin boʻlsa bugun lektsiyadan keyin ʻoling, ingliz tilidan birga dars tayyorlayluk. Javoʻir.", deb yozilgan

Yoshlar soʻzlashuv nutʻi, bir tomondan, keng omma odatlangan nutʻiy vositalarga amal ʻilsa, ikkinchi tomondan, meʻyoriy ʻolga keltirilgan kitobiy, adabiy tildan, sheva xazinalaridan oʻziga xos formalarni ʻabul ʻiladi, turli uslubiy doiralardagi til vositalarini ʻayta ishlaydi, jonlantirib emotsional boʻyoʻdorlik ega ʻiladi. Tildagi mavjud leksik-semantik birliklarni oʻziga moslab ʻisʻartirib olishi esa, u yoki bu funktsional uslublarga taalluʻli vositalarning soʻzlashuv va sodda soʻzlashuv variantlarining yuzaga kelishiga sabab boʻladi.

Oʻzbek adabiy tilining barcha yozma shakllari ʻatori oʻzaki shakllari ʻam keng xalʻ ommasiga xizmat etadi. Yozuv paydo boʻlgach, xalʻ oʻzaki ijodi oʻzining yozma shakliga ʻam ega boʻla borgan. ʻadimda xalʻ oʻzaki nutʻi janrlari niʻoyatda chegaralangan boʻlib, ularning koʻpi yuʻori doiraga oid shaxslar uchun xizmat ʻilgan. Keng xalʻ ommasi serʻirra xalʻ ijodi turidan toʻla-toʻkis foydalanish imkoniyatida maʻrum etilgan. Keng xalʻ ommasi uchun kundalik ʻayotda maʻalliy dialektlar asosida shakllangan soʻzlashuv nutʻi aloʻa-aralashuv ʻuroli vazifasini oʻtagan. Omma nutʻidan ajralgan oʻzaki nutʻning kitobiy shakli koʻproʻ arab - fors tiliga asoslangan boʻlib, davlat arboblari, bir guruʻ ulamolargagina xizmat ʻilgan .

ʻozirgi kunda oʻzaki nutʻning barcha imkoniyatlaridan keng omma foydalanish ʻuʻuʻiga ega. CHunonchi, radio-televidenie nutʻi, saʻna nutʻi, poetik nutʻ, talabalar nutʻi, oʻʻuvchilar nutʻi, oʻʻituvchilar nutʻi, maʻruzachi nutʻi va ʻokazo. Ana shunday rang-barang oʻzaki nutʻ janrlari xalʻ sotsial-madaniy ʻayotining kun sayin ravnaʻidan darak beradi .

Oʻzaki nut va soʻzlashuv nuti bir tushuncha emas, chunki soʻzlashuv nuti funksional uslublarning biri boʻlib, umumtilshunoslikda rasmiy uslubga oppozitsiya tarzida oʻyilgan holda oʻrganilmoʻda.

Adabiy tilning yozma va oʻzaki nut shakllari keng koʻlamli hududiy laʼjalarga kun sayin oʻz taʼsirini oʻtkazmoʻda. Bu oʻrinda radio-televizion, kino-teatrning, xalq maorifining roli diʼyatga molikdir. Koʻproq yoshlar nutida tashqi omillar taʼsiri sezilib turadi.

Oldindan tayyorgarlik asosida olib borilgan ommaviy mitinglar, anjuman va yigʻilishlarda soʻzlanadigan nut, shuningdek radio, televideniyaedagi eshittirishlarga oid oʻzaki nut turlarining barchasi oʻziga xos uslub oʻlipiga egaligi bilan ajralib turadi. Davlat muassasalaridagi majlis, anjuman, maorif shaxobchalaridagi oʻqish va oʻqitish jarayonidagi nutiy oʻlatlar, jurnalistlarning turli kasb egalari bilan olib borgan muxbir xabar(reportaj)lari, suʼbat, savol-javoblari oldindan tayyorgarlikka ega boʻlgan, adabiy tilga amal oʻilingan oʻzaki nut koʻrinishlaridir. Bunday nut koʻrinishlari faʼat magnet lentasiga yozish orqali isbotlaniladi.

Yoshlar nutidagi dialektal lugʻaviy birliklarning ichki xususiyatlaridan kelib chiqib quyidagi 4 guruʼga boʻlib oʻrganishni lozim topdik:

- 1) yoshlar nutidagi fonetik -orfoepik dialektizmlar;
- 2) yoshlar nutidagi leksik-semantik dialektizmlar;
- 3) yoshlar nutidagi frazeologik dialektizmlar;

2.2. Talabalar nutqining morfologik strukturasi.

Nutq soʻzlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi koʻrinishi boʻlib, shu bilan birga, ham ruhiy, ham estetik hodisa hisoblanadi. Shuning uchun ham unga namunaviy nutq sifatida baho berilganda tinglovchi va kitobxonga koʻzda tutilgan maqsadning, aytilmoqchi boʻlgan muddaoning toʻliq borib yetishi, ularga maʼlum taʼsir oʻtkazishi nazarda tutiladi, hamda bu vazifalarning amalga oshirilishida nutq oldiga ayrim talablar qoʻyiladi. Bu talablar gramatik jihatdan nutqning toʻgʻri boʻlishini, soʻzlar koʻzlangan maʼnoni aniq aks ettirishini, chiroyli, yorqin va taʼsirchan boʻlishini taqozo qiladiki, ular nutqning asosiy xususiyatlari sifatida qaraladi. Nutq haqidagi taʼlimot – ortologiya ana shu sifatlarni oʻrganish bilan shugʻullanadi.

Qadimgi davrlarda ham nutqning bu jihatlariga alohida eʼtibor berib kelishgan. Masalan, Rimliklar namunaviy nutqning sifatlarini oʻzida aks ettiruvchi qoidalar ishlab chiqishgan. Mashhur notiq Sitsiron fikricha, aniqlik va tozalik nutq uchun shunchalik zarurki, ularni asoslab oʻtirishning ham hojati yoʻq. Ammo notiq tinglovchilarni oʻziga jalb qilinishi uchun bu sifatlari hali yetarli emas. Buning uchun nutq jozibador boʻlishi kerak. Notiq Dionis Galikarnos esa nutqda maqsadga muvofiqlikni muhim deb hisoblagan. XV – XVI asr Oʻrta Osiyo maʼnaviyatining yirik vakili hisoblangan Mavlono Husayn Voiz Koshifiy ham “Faduvvatnomai – sultoniyy” asarining “Tariqat asarining odobi” deb nomlangan beshinchi bobida nutqning bu fazilatlarini haqida muhim tezislarni ilgari surgan.

Xullas, maʼnaviyati va madaniyati shakllangan xalqlar uchun notiqlik sanʼati inson faoliyatida muhim omillardan sanalgan, hamda asosiy eʼtiborni nutqning yaxshi boʻlishiga qaratgan. Oʻz nazariyotchilari ham boʻlgan.

Agar nutq ma`lum vaziyat shart sharoitlarda amalga oshirilishi nazarga olinsa, bunda joy vaqt, mavzu va muloqot jarayonining maqsadi kabi omillar kata ahamiyatga ega bo`ladi. Aytilganlarni qisqacha umumlashtirilgan bo`lsak, nutqning asosi sifatida quyidagilarni belgilash lozim bo`ladi: to`g`riqlik, aniqlik, tushunarlilik va maqsadga muvofiqlik. Quyida ular haqida qisqacha ma`lumotlar beriladi.

Nutqning to`g`ri bo`lishi uning bosh kommunikativ xususiyati hisoblanadi. Nutqning to`g`ri tuzilgan bo`lishi tomonlarning – so`zlovchi va tinglovchining, yozuvchi va o`quvchining bir – birlarini tez va oson tushunishlarini ta`minlaydi. Agar nutq to`g`ri bo`lmasa, u aniq ham, maqsadga muvofiq ham, mantiqiy ham bo`lmaydi. “To`g`riqlik deganda, - deb yozadi rus tilshunosi V.G.Kostomarov, - nutq madaniyatining zarur va birinchi sharti sifatida adabiy tilning ma`lum paytda qabul qilingan me`yorini qat`iy va aniq muvofiq kelishini, uning talaffuz, orfografik, lug`at va gramatik me`yorlarni egallashni tushunish lozim bo`ladi. Demak, nutqning to`g`ri bo`lishi dastlab uning adabiy til me`yorlariga muvofiq kelishi bo`lib hisoblanadi.

Nutqning to`g`ri bo`lishi asosan ikki me`yorga – urg`u va gramatik me`yorga amal qilishni taqozo etadi. So`zlardagi ayrim bo`g`inlarning zarb bilan talaffuz qilinishi, ya`ni ularga urg`uning tushushi hamma tillarda ham bir xil xususiyatga ega emas.

Masalan, rus tilida urg`u so`zlardagi har xil bo`g`inlarga tushishi mumkin bo`lgan holda, o`zbek tilida, u, asosan, so`zning oxiri bo`g`iniga tushadi. So`zga qo`shimchalar qo`shish bilan urg`uning o`rni ham o`zgarib boraveradi.

Nutqning tozaligi deganda, unda til elementlarining ishlatilishida adabiy til me`yorlariga qilish – qilmaslik tushiniladi. Yaxshi, namunaviy nutq hozirgi o`zbek adabiy tili talablarga mos holda shakllangan bo`lishi, turli g`ayriadabiy va g`ayriaxloqiy til elementlardan xoli bo`lishi kerak. Bu

masalaning til jihati bo`lib, nutqiy tozalikning tildan tashqari – paralingvistik jihatlari ham undan kam bo`lmagan ahamiyatga ega. Chunki u boy ma`naviy – axloqiy qadriyatlarga ega bo`lgan va bugun mustaqillik davrida yashab, dunyo hamjamiyati bilan teng mavqeda muloqot muloqotda bo`layotgan o`zbek xalqining madaniy darajasiga mos bo`lishi lozim.

Xo`sh nutqimizning toza bo`lishiga xalaqit berilayotgan lingvistik elementlar qaysilar? Bular asosan dialektizmlar va varvarizmlardir. To`g`ri, ular tilimizda ishlatilishi kerak, busiz bo`lmaydi. Chunki badiiy adabiyot tilida dialektizm va varvarizmlar ma`lum badiiy estetik vazifani bajarishi, muallifning ma`lum g`oyasini, niyatini amalga oshirishga xizmat qilishi mumkin. Aytaylik, muallif milliy ruhni bermoqchi, asar qahramonining qayerlik ekanligiga ishora qilmoqchi yoki boshqa bir maqsadni ko`zlagan bo`lsin. Ana shundat paytlarda tilning bu unsurlariga murojaat qilish zarur. Masalan, Yoshulli saning qizing bunda g`atirilmagan.

Nutq ijro etilishida unga ma`lum bir voqea – hodisa haqida ma`lumot berishdan tashqari yana bir maqsad – tinglovchi ongiga va ruhiga ta`sir etish vazifa qilib qo`yiladi. Shuning uchun ham ta`sirchanlik nutqning asosiy sifatlaridan biri sanaladi, hamda to`g`rilik va aniqlik ham, mantiqiylik va tozalik ham suhbatdoshga, tinglovchiiga yoki o`quvchiga ta`sir etishiga qaratilgan bo`ladi. Bu sanab o`tilgan xususiyatlarda til omillari birinchi tursa, ularning barchasidan foydalangan holda ta`sirchanlik keng doirada tildan tashqaridagi omillarni ham qamrab oladi.

Tildan tashqaridagi omillar qaysilar? Eng avvalo, notiqning mavzu atrofida yetarli bilimga ega bo`lishi. Mavzuni yaxshi bilmagan notiqning ta`sirli nutq ijro etishi haqida gap bo`lishi ham mumkin emas.

Nutqning ta`sirchanligi deganda, asosan og`zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi va shuning uchun uning tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi ruhiy vaziyatni e`tiborga olish ham muhim sanaladi. Ya`ni, notiq

auditoriyani hisobga olishi – ularning bilim darajasidan yoshigacha, hatto nutq ijro etilayotgan paytidagi kayfiyatigacha kuzatib turilishi, nutqning tinglovchilar tomonidan qabul qilinishi nazorat qilib borilishi lozim bo`ladi. Malakali bilimga ega bo`lgan kishilar oldida jo`n, soda tilde gapirish maqsadga muvofiq bo`lmagani kabi, oddiy, yetarli darajada ma`lumotga ega bo`lmagan auditoriya oldida ham ilmiy va rasmiy tilde gapirishga yo`l qo`yib bo`lmaydi. Xullas, notiqdan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi va butun diqqat – e`tibor ifodalamoqchi bo`lgan fikrni to`laligacha tinglovchilarga yetkazish vazifa qilib qo`yiladi.

Tinglovchining e`tiborini qozongan nutqgina ta`sirchan nutq hisoblanadi. Buning uchun yuqorida ta`kidlaganidek, suhbat mavzusini yaxshi bilishdan tashqari, uni bayon etishning aniq rejasi ham bo`lishi zarur. Nutqdagi fikrlarni birinchi va ikkinchi darajali tarzda tuzib, ularni o`zaro bog`lab, tinglovchilarga avval nutq rejasini tushuntirib, shundan so`ng gapni boshlash lozim.

So`zlovchining o`z nutqiga munosabati ham muhim. Shunday bo`lgandagina quruq rasmiyatchilikdan qochish mumkin bo`ladi. So`zlovchi va tinglovchi o`rtasida samimiyat paydo bo`ladi. Notiq fikrlarni o`zi yoki auditoriyadagi kishilar hayotidan olingan misollar asosida isbotlashga harakat qilsa, mavzuga doir sub`yektiv mulohazalarni bildirsa, nutq yana ham ishonarli va ta`sirchan chiqadi. Tinglovchiga emotsional ta`sir o`tkazishga muvofiq bo`lish esa notiqning yutug`I hisoblanadi. Bu esa mashhur rus notig`I prof. V.O.Kluchkovskiy shunday degan edi: “Jamoat orasida gapirganimizda tinglovchilarni qulog`iga, aqliga murojaat qilmang, shunday gapiringki, ularni sizni tinglab turib, so`zlaringizni eshitsin, predmetlarni siz bilan ko`rib, sizning holatingizga kirishsin. Tinglovchilar sizning tasviringizsiz ham aqli, yuragi, fikri bilan shu predmetni yaxshiroq kuzatadi.

Nutqda fikrni rivojlantira borib, dastlab uning sxemasini tinglovchining ongiga yetkazish, keyin uning tasavvuriga yaqqol taqqoslarni taqdim etish kerak, nihoyat chiroyli lirik tasvirlar bilan uni ehtiyotkorlik bilan tinglovchining yuragiga jo qiling, o`shanda tinglovchi – asiringiz qochib ketmaydi, hatto siz uni erkin qo`yib yuborsangiz ham sizning abadiy itoatgo`y mijozingiz bo`lib qoladi.

Nutqning tinglovchilarga qanday ta`sir qilishida va ularda qanday taassurot qoldirishida notiqning nutqiy jarayon davomida o`zini qanday tuta bilishi, just va mimikalari, hatto kiyinishi kabi omillarning ham ahamiyati bor. Samimiylik, xushmuomalalik, odoblik, auditoriyaga hurmat bilan qarash kabi fazilatlar nutqning tinglovchilar tomonidan e`tabor bilan tinglashiga sabab bo`ladi.

Nutqning ta`sirchanligi, ifodaliligi, gap, ma`lum ma`noda, nutq sifatlari haqida aytilgan mulohazalarga yakun yasashdir.

Chunki, yaxshi nutqning fazilatlarini ko`rsatib o`tish, nutqda uchraydigan ayrim tipik xatolarni tahlil qilish pirovard natijada ta`sirchan bir nutqni shakllantirishga xizmat qiladi.

Yuqorida namunaviy nutqning asosiy talablari qisqacha to`xtalib o`tildi.

Adabiy tilning o`zaki shakli va me`yorlar talaffuzi nutqiy intonatsiyada namoyon bo`ladi. Albatta bu o`zgarishlar so`zlardagi tovushlarda bo`ladi. Uni tilshunoslikning orfoepiya so`asi o`rganadi. Adabiy talaffuz me`yorlari va adabiy talaffuzni ongli bosh`arish orfoepik `oidalar va orfoepik lu`atlar or`ali amalga oshiriladi.

Orfoepiyaning yuzaga kelishida ikki faktor mu`im rol' o`ynaydi. Bulardan biri orfografiya, ikkinchisè xal? o`zaki nutqining turli ko`rinishlari va turli xil sheva talaffuzidir. Ammo orforafiyaning shakllanishida birinchi faktor mu`imdir. O`zbek xal? shevalarining talaffuz me`yorlariga tayangan `olda orfoepik `oidalar yaratish mumkin.

Yuqoridagilarga tayangan qolda aytish mumkinki, fonetik-orfoepik dialektizmlar - bu turli sheva soʻzlaridagi tovushlarning toʻri talaffuzi, nutʻidir.

Oʻzbek tilida soʻzlashuvchi xalq joylashgan hududga nazar tashlab shevalar boʻyicha fonemalarni munosabatini son jiʻatidan arab chiʻsak, bir shevalarning yagona markazi - adabiy til talaffuz meʼyorilariga asos boʻlgan markazga arab yoʻnalganligini koʻramiz.

Toshkent shu yoʻnalishning asosiy punktidir.

1. Toshkent - Andijon
2. Toshkent - Buxoro
3. Toshkent - Urganch (Xorazm)

Biz olib borgan tekshirish bu yoʻnalishlarning nechoʻli aʻ ekanligini koʻrsatdi. Yoshlarimic Toshkent, Andijon, Buxoro, Samarqand hududlarida yashaganliklari sababli, ular nutʻida hududiy laʻjalar ishlatilishi tabiiy qoldir.

Yoshlar nutʻidagi fonetik -orfoepik dialektizmlarni ikkiga boʻldik:

1. Unli tovushlarning oʻzgarishi, talaffuzi bilan boʻliq dialektizmlar

Oʻzbek tili shevalari oʻz vokalizmiga koʻra juda xilma-xil. Toshkent Buxoro shevalarining unlilar tarkibi son jiʻatdan bir xil, 6 ta unli fonema bor, lekin ularning talaffuzi (sifati) bir-biridan farq qiladi.

Bizga maʼlumki, unlilarda choʻziqlik va isʼalik xususiyati bor. Buni tilshunos M.Mirzaev 2 ga boʻlgan:

- 1) tabiiy choʻziqlik;
- 2) oldingi undoshning tushishi natijasida.

Xuddi mana shu oʻzgarishlarni yoshlar nutʻida koʻrishimiz mumkin. Masalan, buxorolik oʻimagan, turmushga chiʻʻan, sodda 19 yoshli ayol nutʻiga eʻtiborni arataylik:

- qolimizni oʻziyiz koʻrib turibsiz. Kunimiz bazoʻr oʻtopti. Man bolala tashvishidan ortmayman. Akayiz boʻsa....

Uning nutʻidagi choʻziqlik tabiiydir. Chunki bu qodisa uning shevasiga mansubdir. U buxorolik boʻlganligi sababli shunday talaffuz etadi. Professor

M.Mirzaev aytganidek, "ikki tili shevada a,o,i kabi" unlilar ma`lum darajada cho`zi? aytiladi. SHuning uchun ?am yoshlar nut?ida bunday ?olatning bo`ldishi tabiiy. Ammo buxorolik o`?imishli, madaniyatli, turmush ?urgan, 19 yoshli ayol nut?i o`?imagan ayol nut?idan far? ?ilishi ?am tabiiydir. CHunki oliy ma`lumotli kishi o`z nut?iga e`tibor beradi. Masalan:

- Kechirasiz,- dedi Zilola,- ichkariga taklif ?ilay desam ?ammayo? to`polon. Ko`÷ éè?ishtiryapmaí.

- Ko`chyapsizmi?

- ?a, shunday.

Unlilarning lablanishi, ya`ni labializatsiyasi so`zlarning ikkinchi, ba`zan uchinchi bo`?inida uchraydi. Lablangan "i" o`rniga "u" tovushi talaffuz etiladi. Bu ?am M.Mirzaevning ta`kidlaganidek, "ikki tili" shevada uchraydi.

- ?a, muncha akun. Yo`lga ?arab yozni xam o`tkazub boropsizmi? Na dam olish, na bosh?asi... Bu erdagilani ?amini esang-chi?

-Akun gapni ko`p ?ilma, ?orun ?am piyoz bo`lopti, abetni ?eerga ?ilamiz. SHundan gapir. Yoto?dami yoki...

Bu nut? 20 yoshli talaba yigitga tegishli. U ?am buxorolik. Uning nut?idagi bu ?olat bugungi kunda singarmonizm ?oldi?i deb ?aralmo?da.

Yoshlar nut?ida delabializatsiya ?odisasi ?am uchraydi. Ya`ni lablangan unlilarning lablanmagan unlilarga o`tishi, bosh?acha ?ilib aytgand, yu?orida ko`rib o`tgan ?odisaning teskarisi. Bu "bir tili" shevalarda uchrab, bosh?a shevalarga nisbatan tur?un xarakterga ega.

2. Undosh tovushlarning o`zgarishi, talaffuzi bilan bo?li?

dialektizmlar

SHevadagi undosh fonemalar, unli fonemalar kabi artikulyatsion va akustik ji?atdan o`zbek adabiy tilidagi undosh fonemalardan ancha far? ?iladi. Bunday dialektizmlarning ba`zilari fonema tarkibidan ko`ra adabiy tildagi variantlardan jiddiy far? ?iladi. Ba`zilari bir tovush o`rniga shunga o`xshash ikkin÷è tovushning ?o`llanishi bilan,ba`zilari biror tovushning orttirilishi yoki ayrimlari

o`z tarkibidagi ayrim bo`lin yoki tovushlarning is`arishi yoki ayrimlari juda kichik farq bilan differentsiyalashsa, leksik shu kichik farq uslubiy ji`atdan ma`lum ekspreessiv vazifani bajaradi.

Shevadagi undosh fonemalar, unli fonemlar kabi artikulyatsion va akustik ji`atdan o`zbek adabiy tildagi undosh fonemalardan ancha farq qiladi.

Tarkibida "n" yoki "m" undoshi bo`lgan adabiy orfografiya ba`zi so`zlar boshida "b" undoshi shevadà "m" undoshiga o`tadi. Bir tovush ikkinchi bir tovushni o`ziga isman o`xshatib oladi. Tilda bu o`disa nazalizatsiya o`disasi deb yuritiladi. Masalan,

-Umar aka biya?a keling-dedi Umida

-Ra?mat, uyga boshim kerak edi-deb javob qildi Umarxon

-?o`yivering, borovo`rsinla onalaridan baloga ?olala -Umidaning ?amkasbdosh dugonalaridan biri.Umarxonga bu gap ?atti? botti shekilli,ular tomonga ya?inlashdi.

-Mundo? o`tiring,-dedi Umida

O`zbek tilshunosligida fonetik xodisalar keng o`rganilmagan bo`lsada, o`zaki nut?, ayni?sa, turli shevalardagi yoshlar nut?ida so`zlar turlicha shaklda talaffuz etish o`disasi uchraydi. Yonma-yon kelgái undosh tovushlarning o`rin almashinishi jonli xalq tilida ko`p uchraydi. Bu ?olat ko`proq sonor undoshlar o`rtasida bo`ladi. Bunday fonetik o`zgarishlar tilda metateza o`disasi deyiladi. Masalan, "Abdullajon " kinofil'midan olingan parchaga e`tiborni ?arataylik:

-Abdulajon o`?lim!-dedi erni ketmonlab turgan Bozorboy mallasoch o`?liga ?arab

-Labbay, dadajon.

-CHoydan ?uy,choydan.

-Ý,o`?lim bu yil ?osildan kam bo`ladi,shekilli

-Nega bunday dedingiz ada.

-?ara, o`?lim... turpoq ?uri?,-dedi tuproqni ?o`liga olib,- ?aniydi bir yo?mir yo?saydi.

- SHu xolosmi?!

Yoshlar nutida tovush orttirilishiga nisbatan tovushlarni tejashga intilish
?odisasi ko`pro?. Masalan,

Barmoqlari mashinaning eshigiga ?isilib ?olgan Jamshid ko`zoynalgi ko`zlari
